


XODJIMATOV A.N., KARSHIBAEVA L.Q.,  
MADRAXIMOVA Z.N., SATTAROV S.M., ZIKIROV I.Ya.

# MUHOFAZA ETILADIGAN TABIY HUDUDLAR (darslik)



28.081 Ya 7

15ta

M-96 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

NIZOMIY NOMIDAGI  
TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI

XODJIMATOV A.N., KARSHIBAeva L.Q.,  
MADRAXIMOVA Z.N., SATTAROV S.M., ZIKIROV I.Ya.

# MUHOFAZA ETILADIGAN TABIY HUDUDLAR

(darslik)

TOSHKENT-GULISTON – 2021

**UDK: 371.03**

**KBK 28.081**

**M 96**

**Xodjimatov A.N., Karshibaeva L.Q., Madraximova Z.N., Sattarov S.M., Zikirov I.Ya. Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar. Darslik. T.-Guliston: «Ilm ziyo zakovat», 2021., 138 bet**

Darslikda fanning nazariy asoslari, muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to'g'risidagi tushuncha va toifalari, joylanish xususiyatlari hamda uning landshaft-ekologik asoslari atroflicha yoritilgan.

Respublikadagi mavjud qo'riqxonalar, milliy tabiat bog'lari, ularning o'ziga xos xihatlan tavsiflangan.

Darslikda yana muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning vazifalari, ular faoliyatini takomillashtirish masalalariga ham alohida e'tibor berilgan. Ayniqsa, milliy tabiat bog'larining rekreatsiya va ekoturizm imkoniyatlaridan samarali foydalanishning ekologik-iqtisodiy jihatlarini keng tarzda bayon etilgan.

Mazkur darslik geografiya, biologiya, ekologiya va boshqa tegishli ta'lim yo'nalishi bakalavriyat talabalari, magistr'larga mo'ljallab yozilgan. Shuningdek, undan ta'limning turli jabhalarida faoliyat olib borayotgan o'qituvchilar va sohaga qiziquvchi boshqa mutaxassish vakillari ham foydalanishlari mumkin.

**Ma'sul muharrir:** **Asqar Nigmatov** – geografiya fanlari doktori, professor.


**Taqrizchilar:** **Quvondiq Yarashov** – SamDU Geografiya va tabiiy resurslar kafedrasi mudiri, dotsent, PhD.

**Anvar Rasulov** – Nizomiy nomidagi TDPU Geografiya va uni o'qitish metodikasi kafedrasi dotsent v.b., PhD.

**Abror Yuldashov** – Guliston davlat universiteti Tabiiy fanlar fakulteti dekani, geografiya fanlari nomzodi.

**ISBN 978-9943-6326-3-9**

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2021-yil 23-noyabrda 500-sonli qarori bilan nashr etildi.



© **XODJIMATOV A.N., KARSHIBAeva L.Q., MADRAXIMOVA Z.N., SATTAROV S.M., ZIKIROV I.Ya. – 2021**

© «Ilm ziyo zakovat» 2021

# MUNDARIJA

<b>KIRISH</b> .....	5
<b>I BOB. "MUHOFAZA ETILADIGAN TABIIY HUDUDLAR" FANINING NAZARIY ASOSLARI</b> .....	
1.1. Fanning paydo bo'lishi, mazmun-mohiyati, tadqiqot ob'ekti va predmeti .....	7
1.2. "Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar" fanining ahamiyati, maqsadi va vazifalari .....	7
1.3. Muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni tashkil etish tamoyillari .....	9
<b>II BOB. MUHOFAZA ETILADIGAN TABIIY HUDUDLARNI O'RGANISH</b> .....	
2.1. Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar: tushuncha, toifa va mohiyat .....	11
2.2. Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar (METH)ning joylashish hususiyatlari va uni takomillashtirish .....	20
2.3. O'zbekistonda muhofaza etiladigan tabiiy hududlar tuzilishini tashkil etishning landshaft-ekologik asoslari .....	23
<b>III BOB. O'ZBEKISTON QO'RIQXONALARI VA MILLIY TABIAT BOG'LARINING TABIATNI MUHOFAZA QILISHDAGI O'RNI</b> .....	
3.1. O'zbekistonning qo'riqxonalari .....	26
3.2. O'zbekistonning milliy tabiat bog'lari .....	32
3.3. Mintaqalardagi (Farg'ona vodiysi misolida) muhofaza etiladigan tabiiy hududlar. ularning hozirgi holati va kelajagi ..	39
<b>IV BOB. MUHOFAZA ETILADIGAN TABIIY HUDUDLARNING ASOSIY VAZIFALARI VA ULAR FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRI</b> .....	
4.1. Muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning asosiy vazifalari .....	44
4.2. Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar faoliyatini takomillashtirishning ekologik-iqtisodiy jihatlarini .....	50
4.3. Muhofaza etiladigan tabiiy hududlarga tutash (Parkent tumani misolida) mintaqalarning rekreatsiya va turizm imkoniyatlari ..	58

**V BOB. BIOLOGIK RESURSLARNI MUHOFAZA QILISHDA  
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI "QIZIL KITOB"NING  
O'RNI**

5.1.	"Qizil kitob" to'g'risida.....	64
5.2.	O'zbekiston Respublikasi "Qizil kitobi"ga kiritilgan o'simlik va zamburug'lar.....	65
5.3.	O'zbekiston Respublikasi "Qizil kitobi"ga kiritilgan yo'q bo'lib ketgan va yo' bo'lib ketish xafvi ostidagi hayvonlar ro'yxati.....	88

**VI BOB. MUHOFAZA ETILADIGAN TABIIY  
HUDUDLARDAN OQILONA FOYDALANISH**

6.1.	Landshaft to'g'risida umumiy tushuncha.....	112
6.2.	Landshaftdan foydalanish va muhofaza qilish.....	113
6.3.	Muhofaza etiladigan tabiiy hududlardan oqilona foydalanish bo'yicha xulosa va takliflar.....	118
	<b>IZOHLI LUG'AT</b> .....	123
	<b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLARI RO'YXATI</b> .....	135

## KIRISH

O'zbekiston tabiatining jozibadorligi bilan azaldan ko'plab dunyo xalqlari e'tiborini o'ziga tortib kelgan. Uning bepayon cho'lu-adirlari, serviqor tog'lari, zilol suvlari, yam-yashil dala bog'lari qancha-qancha ijod ahliga ilhom baxsh etgan. Endi ana shu go'zallikni asrab-avaylash hamda kelajak avlodlarga ham etkazishdadir. Shu bilan birga ana shu tabiat in'om etgan tuhfadani oqilona foydalanish ham bizning burchimiz ekanligini sira unitmaslik kerak.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek: **"...mamlakatimizning betakror tabiati, go'zal dam olish zonalari imkoniyatlaridan foydalanib, yangi turistik yo'nalishlar ochish mumkin"**

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev boshchiligida 2020 yil 6 martdagi atrof-muhitni asrash va chiqindilarni boshqarish tartibini takomillashtirish masalalariga bag'ishlangan yig'ilish o'tqazildi. Unda: 1) **muhofaza etiladigan tabiiy hudud (METH)lar maydonini kengaytirish;** 2) **"Qizil kitob"ga kiritilgan hayvonlarni ovlaganlik uchun jazoni kuchaytirish bo'yicha takliflar bildirilgan edi**<sup>1</sup>. Shularni inobatga olib, mutaxassislarning taklifi bilan **"Janubiy Ustyurt milliy tabiat bog'i"** tashkil etildi. Bundan asosiy maqsad Ustyurt platosining janubidagi chink landshaftlari va boshqa tabiat komponentlarini majmuali saqlashdan iboratdir.

Aynan shu borada muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning (milliy tabiat bog'lari, qo'riqxonalarining ham ma'lum mintaqalardan cheklangan – foydalanishni yo'lga qo'yish mumkin) imkoniyatlari bisyor.

O'zbekistonda ana shunday muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning maydonini yanada kengaytirish uchun etarli asoslar mavjud. Bunday hududlar maydonining kengaytirilishi ona tabiatimizni asrash bilan birga aholi salomatligini tiklashi, bir so'z bilan aytganda sog'lom – barkamol avlodni voyaga etkazishda muhim ahamiyatga ega.

<sup>1</sup>Uzbekiston Respublikasi Prezidenti Ш.М.Мирзиёевнинг Олий Мажлиси Мурожаатномаси / Халқ сўзи. 2017 йил 23 декабрь

<sup>2</sup>Халқ сўзи / 2020 йил 7 март.

Mazkur darslik mutlaqo yangi fanga bag'ishlangan bo'lib, uning bironta muqobil turdoshi yaratilmagan, mazkur ish bu borada ilk qadam hisoblanadi.

Shu bois undan nazariy – metodik jihatdan ayrim kamchiliklar bo'lishi tabiiy hol. Ushbuni inobatga olib, mualliflar drslik yuzasidan bildirilgan mulohazalrga avvaldan minnatdorchiilik bildiradilar va ularni keyingi nashlarda albatta inobatga oladilar.

## I BOB. "MUHOFAZA ETILADIGAN TABIIY HUDUDLAR" FANINING NAZARIY ASOSLARI

### 1.1. Fanning paydo bo'lishi, mazmun-mohiyati, tadqiqot ob'ekti va predmeti

Inson o'zini tanibdiki, o'zi yashayotgan atrof-muhitning toza-ozodaligi uchun qayg'urib, uning bergan ne'matlarini asrab avaylashga urinib kelganligini inkor etib bo'lmaydi.

Ko'plab xalqlarda diniy e'tiqod tariqasida bo'lsa ham muqaddas qadamjoylar, vodiylar, o'rmonlar, buloqlar, ko'llar, g'orlar kabilar bo'lib, ularni hozirgi davrdagi METHning ilk kurtaklari deb tushunmoq lozim. Bulrdan tashqari tarixda o'tgan shoh va xonlarning "ov qilish maydonlari" ham bo'lganki, ularni hamisha jiddiy tarzda qo'riqlangan bo'lib, ularni hozirgi qo'riqxonalarining asosi deyish mumkin.

2003 yilda Durban shahri (Janubiy Afrika) da bo'lib o'tgan 5-Parklar kongressida qayd qilib o'tilganidek hozirda METH global tizimi sayyoramizning 11,5% ini qamrab olgan.

"Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar" tabiiy fanlar (xususan tabiiy geografiya, biologiya, ekologiya va boshqa) ta'lim yo'nalishlarining qator yo'nalishlarida alohida mavzu sifatida o'rganilgan bo'lsada, uning fan sifatida endigina namoyon bo'lishidan hali fanning nazariy asoslarini to'liq ishlab chiqilgan deb bo'lmaydi.

Fanning tadqiqot **ob'ekti** o'z nomidan kelib chiqqan holda METH hisoblanadi. Uning **predmeti** esa METHdan oqilona foydalanish va tabiatni saqlash, asrash, muhofaza qilishni tartibga solishdir.

### 1.2. "Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar" fanining ahamiyati, maqsadi va vazifalari

Insonning tabiatga ta'siri jadallik bilan avj olayotgan hozirgi davrga kelib, uning bevosita va bilvosita ta'siriga uchramagan tabiiy

hududlar (landshaftlar, geotizimlar, ekotizimlar) deyarli qolmadi desa, mubolag'a bo'lmaydi.

Nima bo'lganda ham inson tabiat oldidagi o'zining yuksak ma'suliyatini doimo his etib yashashi lozim. Chunki u Yer yuzasining talaygina hududlarida shunchalar o'zgarishlarga sabab bo'lgan-ki, endi inson o'sha joylar yoki butunlay ayrim tabiat mintaqalarining asl holatini faqatgina joylardagi tashkil etilgan muhofaza etiladigan tabiiy hududlardagina ko'rishi mumkin.

"Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar" fani ana shunday hududlarning bor go'zalligini asrash, ularning maydonini kengaytirish, uning barcha imkoniyatlari (ilmiy, estetik, tarbiyaviy, ijtimoiy, iqtisodiy, ekologik va b.) dan yanada samarali foydalanishning ilmiy asoslarini ishlab chiqishdan iboratdir.

**Fanning asosiy maqsadi** muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning barcha toifalari, ularni joylashish tamoyillari, ahamiyati to'g'risida bilimlar berishdir.

**Mazkur fanning asosiy vazifalari:**

- muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni o'rganishning dolzarbligini aniqlash;

- ularning barcha toifa-turlarining nima maqsadda tashkil etilganligini chuqur tahlil qilish;

- muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning geografik-ekologik jihatlarini ilmiy o'rganish;

- muhofaza etiladigan tabiiy hududlardagi inson faoliyatining mohiyatini anglash;

- METH imkoniyatlaridan inson faoliyatida yanada kengroq foydalanishning ilmiy-me'yoriy andozalarini ishlab chiqish va b.

Yuqoridagi maqsad va vazifalarni echishda ushbu fan umumiy hamda qator xususiy fanlarning tadqiqot usullari (tizimli yondashuv, paleogeografik, landshaft-induksiya, landshaft-geokimyoviy, kartografik, balans (muvozanat), qiyosiy taqqoslash, matematik modellashirish, distansion) dan keng foydalanadi.

Ushbu fan o'z taraqqiyotida umumtabiiy, umumiqtisodiy geografik fanlar, xususan: "Landshaftshunoslik", "Geomorfologiya",

“Gidrologiya” “Iqlimshunoslik”, “Tuproqlar geografiyasi”, “Kartografiya”, “Rekreatsiya geografiyasi”, “Ekoturizm”, “Ekologiya”, “Tabiatni muhofaza qilish” kabi fanlar bilan o‘zaro aloqadorlikda bo‘ladi.

### 1.3. Muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni tashkil etish tamoyillari

METHlarni tashkil etish ikkita asosiy yo‘nalishlardan iborat: **birinchisi** tabiiy resurslarni saqlash bo‘lsa, **ikkinchisi** insonni o‘rab turgan tabiiy muhitga ko‘maklashmoqdir. Ularning har ikkalasi ham tabiiy (ekologik) muvozanatning mutanosibligiga asoslanadi.

Tabiiy muvozanatni **vazifaviy (funktional)** quvatlash asosida geotizim (ekotizim) dagi ko‘plab elementlarni saqlash yoki optimallashtirish (ekotizimlarni muhit hosil qiluvchi komponentlari majmuasi) yotadi.

Ekotizimlarning oddiy xilma-xilligi va komponentlararo muvozanatini saqlashda, ularni quvvatlashda (ko‘maklashishda) asosiy og‘irlik **hududiylikka** tushadi.

Ekologik muvozanat uchta o‘zaro bog‘liq muvozanat jarayonlariga asoslanadi: “tabiat-inson” (keng ma‘noda) tizimidagi global munosabatlar; xo‘jalik va mahalliy ekotizimlar o‘rtasidagi mintaqaviy (regional) muvozanat; tabiiy hosilalarning ijtimoiy (sotsial) – ekologik jihatdan ishonchligini saqlash. Bunda, ekologik muvozanatning ham maqsadlilikini ko‘rinib turibdi.

METH hamisha qandaydir xo‘jalik maqsadlarda foydalanish uchun tashkil etilgan. Ammo, uni ko‘pincha iqtisodiy emas, balki hissiyotli tamoyillar asosida tashkil etilganligiga urg‘u beriladi.

METH tabiatdan foydalanish tizimining tarkibiy qismi bo‘lib, o‘ziga tabiiy resurslarning ma‘lum qismini birlashtirgan bo‘ladi. Ularning: 1) rekreatsiya resurslari, ya‘ni dam olish, inson salomatligini quvvatlovchi va tiklovchi omillar; 2) muhit yaratuvchi, qaysiki tabiiy muvozanatni ta‘minlovchi hamda qimmatli tabiiy resurslar va ob‘ektlarni saqlovchi mujassamlar.

METHni tashkil etilishi ko'p hollarda landschaft – zonallik tamoyillariga asoslanadi. Chunki “**har bir regionga – o'zining qo'riqxonasi**” tamoyili nazariy jihatdan etarlicha asoslanmagan.

METH, xususan milliy tabiat bog'lariga tushadigan antropogen yukni tartibga solishda ekologik, ruhiy (psixologik) va rejalashtirish jihatlariga alohida e'tibor berish lozim. Ana shularga asoslangan holda nafaqat milliy tabiat bog'lari, balki qo'riqxonalarining ma'lum qismlaridan qat'iy cheklangan tartibda rekreatsiya va ekoturizm maqsadlarda foydalanishni yo'lga qo'yilishi ham foydadan holi bo'lmaydi.

#### **Tayanch iboralar:**

Oqilona foydalanish, tabiatni saqlash, METH, toifa, ekotizim, hududiylik, tabiiy resurslar, qo'riqxonalar, antropogen yuk.

#### **Nazorat uchun savollar:**

1. METHga ta'rif bering.
2. Fanning tadqiqot ob'ekti va predmetiga izoh bering.
3. Fan o'z oldiga qanday maqsad va vazifalarni qo'ygan?
4. Ushbu fan qaysi fanlar bilan uzviy aloqada rivojlanadi?
5. METHni tashkil etishning qanday yo'nalishlari mavjud?
6. METHni tashkil etishdan maqsad nima?
7. METHlar ham tabiatdan foydalanishning tarkibiy qismiga kiradimi?
8. METHni tashkil etilishi qanday tamoiillarga asoslanadi?

## II BOB. MUHOFAZA ETILADIGAN TABIIY HUDUDLARNI O'RGANISH

### 2.1. Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar: tushuncha, toifa va mohiyat

Yerning yoki suv kengliklari (akvatoriyalar) ning ustuvor **ekologik**, ilmiy, madaniy, estetik, rekreatsiya va sanitariya – sog'lomlashtirish ahamiyatiga molik bo'lgan, xo'jalik maqsadidagi doimiy yoki vaqtincha foydalanishdan to'liq yoki qisman chiqarilgan maydonlar **muhofaza etiladigan tabiiy hududlar** hisoblanadi.

Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar biologik, landshaft rang-barangligini ta'minlash va ekologik muvozanatni saqlab turish uchun mo'ljallangan yaxlit ekologik tizimni tashkil etadi.

Tabiiy ob'ektlar va majmualarni saqlab qolish, takror ko'paytirish va tiklash maqsadida muhofaza etiladigan tabiiy hududlarda muhofaza qilish va foydalanish tartibi o'rnatiladi.

Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar (qonun, 3.12.2004) **belgilangan maqsadi va tartibiga qarab quyidagi toifalarga bo'linadi:**

- davlat qo'riqxonalari;
- majmua (landshaft) buyurtma qo'riqxonalari;
- tabiat bog'lari;
- davlat tabiat yodgorliklari;
- ayrim tabiiy ob'ektlar va majmualarni saqlab qolish, takror ko'paytirish va tiklash uchun mo'ljallangan hududlar;
- muhofaza etiladigan landshaftlar;
- ayrim tabiiy resurslarni boshqarish uchun mo'ljallangan hududlar.

**Davlat qo'riqxonalari** tabiiy ob'ektlar va majmualarni muhofaza qilishning qattiq rejniga ega bo'lgan asosiy ekologik tizimlar, o'simliklar va hayvonlarning irsiy fondini saqlab qolish hamda o'rganish uchun mo'ljallangan, umumdavlat ahamiyatiga molik muhofaza etiladigan tabiiy hududlardir.

Muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni tashkil etish, muhofaza qilish va ulardan foydalanish sohasidagi davlat boshqaruvi O'zbekiston



МУХОБАДА ЭВЕНТАЛЫНГАН ТАБИИИ ХУДУСЛАР ТОЙФАЛАРЫ ВА МАЙДАНЛАРИ

I-тойфа МЭТХ

Далаат кўрүнмалары (га)	III-тойфа МЭТХ Табият бөлгери (га)	IV-тойфа МЭТХ Табият бөлгичлери (га)	Буюртма кўрүнмалар (га)
1. Экин	26 840	24 110	124
2. Ҳўра	17 752	506 941	1 000
3. Хўш	(80986) 78 986	2 436,4	96
4. Қишлоқ	10 311	21 687,5	1471,5
5. Сураон	23 802	3 938	39,2
6. Чоққал биосфера	24 706	1 447 143	22,2
<b>Жами</b>	(184397) 182397	<b>2066248,9</b>	<b>8,5</b>

II-тойфа МЭТХ

Мақсуда (ландшафт) буюртма кўрүнмалари	Биосфера резерватлари (га)
Ҳазратай* АМБ	68 717,8
<b>Жами</b>	<b>42 952,81</b>

- \* Ховида 6 га далаат кўрүнмалари, 1 га мақсуда (ландшафт) буюртма кўрүнмалари, 6 га табият бөлги, 1 га мўлзий бөлги, 11 га табият дўрраничи, 2 га биосфера резервати, 12 га буюртма кўрүнмалари, 1 га Жўрион мақсуд индонимети майвуд.
- \* Уларнинг умумий майдони 3 783 396,81 гектарни ташкил қилади. Мақсадландирилган 84 га Ермон хўралиги қорғоқлари мақсуд индонимети умумий майдони 11,44 млн гектарни ташкил қилади. Ўсимлик-чўлпонини сарфлаш бўлими буюртма МЭТХ тарихий умумий майдони 1063166,81 гектарни ташкил қилади.
- \* Урмон хўралиги далаат кўрүнмалари ташкиротида Ушани, Зарфишон ва Устои-Чўққал далаат индонимети табият буюртма индонимети.
- \* Далаат индонимети (ландшафт) буюртма кўрүнмалари - Катта гўлжага индонимети табият бөлги.
- \* У-Абдуқодиқ Чечен Нурали\* АЖ таъминотида Ушани-Чўққал далаат биосфера резерватини фойдаланиш қорғали.
- \* Халқаро табиятнинг умумий мақсуд индонимети (МСОН) таъминоти бўлими I-V тойфа ва биосфера резерватлар таъминоти
- АЖХ таъминоти бўлими индонимети кўрүнмалари 8,5 га таъин қилинган.

IV-тойфа МЭТХ

Буюртма кўрүнмалар (га)	Жами
1. Арқасий	65 880
2. Давитқўй	30 000
3. Қорғалар	30 000
4. Сураон-Қишлоқ	280 802
5. Мўрали	244 469
6. Оқсар	15 420
7. Қарғиқўй	23 038
8. Қишлоқ	16 500
9. Ҳўра	40 000
10. Қумсураон	4 900
11. Хўра	11 300
12. Омонураон	1 515
<b>Жами</b>	<b>802 911</b>
У тойфа бўйича жами	16 572
	<b>819 433</b>

У тойфа бўйича жами	Жами
Миллий бөл	32,4
Дўррани	32,4

- VI-тойфа МЭТХ
- Урмон хўралиги индонимети кўрүнмалари
- 62 Урмон хўралиги
- 6 Урмон хўралиги
- 4 индонимети таъминоти
- 10 индонимети Ур. хўралиги.
- Жами**
- 11 441 523
- 11 441 523

Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, mahalliy davlat hokimiyati tashkilotlari, shuningdek maxsus vakolatli davlat tashkilotlari tomonidan amalga oshiriladi\*.

Davlat qo'riqxonalarining hududida har qanday faoliyat taqiqlanadi, ilmiy-tadqiqot faoliyati va atrof – tabiiy muhit monitoringini yuritish bundan mustasno. Davlat qo'riqxonalarida yong'inga qarshi tadbirlar o'tkazilishiga yo'l qo'yiladi.

Davlat qo'riqxonalari hududida hamda ularning qo'riqlanma mintaqalarida tirik organizimlarning yangi va kenja turlarini iqlimlashtirish maqsadida joylashtirish taqiqlanadi. Davlat qo'riqlarining yoki ular qaysi davlat tashkilotlarining tasarufida bo'lsa, shu davlat tashkilotlarining xodimi hisoblanmaydigan fuqarolarning davlat qo'riqxonalari hududida bo'lishiga ularda ana shu organlar yoki davlat qo'riqxonasi ma'muriyati bergan ruxsatnoma bo'lgan taqdirda yo'l qo'yiladi.

Majmua (landshaft) buyurtma qo'riqxonalari alohida ekologik qimmatga ega bo'lgan tabiiy ob'ektlar va majmualarni asl holatida saqlash uchun mo'ljallangan muhofaza etiladigan tabiiy hududlardir.

**Majmua (landshaft) buyurtma qo'riqxonalari** hududida har qanday faoliyat taqiqlanadi, ilmiy-tadqiqod, rekreatsiya faoliyati, atrof tabiiy muhit monitoringini yuritish, shuningdek pichan o'rish va chorva mollarini o'tlatish, yovvoyi o'simliklarni oziq-ovqat maqsadlari uchun, majmua (landshaft) buyurtma qo'riqxonalarining va mazkur qo'riqxonalarining qo'riqxonalar mintaqalarida yashovchi fuqarolarning o'z ehtiyojlari uchun yovvoyi holda o'sadigan o'simliklarning dorivor va texnik xom ashyosini tayyorlash (yig'ish) bundan mustasno.

**Tabiat bog'lari** alohida ekologik, madaniy va estetik qimmatga ega bo'lgan tabiiy ob'ektlar va majmualarning tabiatini muhofaza qilish yo'nalishidagi rekreatsiya, ilmiy va madaniy maqsadlarda saqlab qolish hamda ulardan foydalanish uchun mo'ljallangan muhofaza etiladigan tabiiy hududlardir. Ular milliy tabiat bog'lari va mahalliy ahamiyatga molik tabiat bog'lariga bo'linadi.

---

\*Ўзбекистон Республикасининг "Мухофаза этиладиган табиий ҳудудлар тўғрисида"ги қонуни. 3.12.2004

“Milliy bog” atamasi AQShda, qaysiki, XIX asrning ikkinchi yarmida alohida muhofaza qilinadigan hududlarning ushbu turi (Yellouston milliy bog’i – 1872 y.)ning paydo bo’lishi bilan bog’liq. Ularni tashkil etishning asosiy tamoyili, qimmatli tabiiy ob’ektlarni “millatning foydasi va farovonligi uchun” saqlashdan iborat bo’lgan.

Tabiat bog’larining hududida qo’riqxonaga aylantirilgan mintaqalar, rekreatsiya, xo’jalik maqsadida va boshqa tarzda foydalanish mintaqalari ajratiladi.

Aholini sog’lomlashtirish uchun sharoit bo’lgan taqdirda tabiat bog’larida kurort tabiiy hududlar uchun nazarda tutilgan tartibli kurort mintaqalar ajratib qo’yiladi.

Tabiat bog’lari mintaqalarning o’lchamlari va chegaralarini o’zgartirish tasarrufdagi davlat tashkiloti tomonidan, davlat ekologik ekspertizasi xulosasini inobatga olgan holda amalga oshiriladi.

Tabiat bog’larining qo’riqxonaga aylantirilgan mintaqalarida davlat qo’riqxonalarini uchun nazarda tutilgan tartib o’rnatiladi.

Tabiat bog’larining rekreatsiya mintaqalari tabiiy ob’ektlar va majmualarning holatiga qarab turli tartibli qismlarga bo’linishi mumkin.

Tabiat bog’larining xo’jalik maqsadida va boshqa tarzda foydalanish mintaqalarida aholining istiqomat qilishiga, yuridik va jismoniy shaxslarning tabiiy ob’ektlar va majmualarga zarar etkazmaydigan faoliyatiga yo’l qo’yiladi.

Tabiat bog’larining hududida quyidagilar taqiqlanadi:

- daraxt va butalarning kesish (parvarishlar yo’snidagi va sanitariya maqsadidagi kesish bundan mustasno);

- gidrologik va gidrogeologik tartibni o’zgartiradigan harakatlar;

- tuproq eroziyasini, o’simlik va hayvonlar dunyosining tanazzulini keltirib chiqaruvchi harakatlar;

- tabiat bog’larining faoliyati bilan bog’liq bo’lmagan yo’l va muhandislik – kommunikatsiya ishlarini amalga oshirish;

- chiqindilarni saqlash va ko’mish, oqova suvlarini oqizish;

- tirik organizmlarning yangi va kenja turlarini iqlimlashtirish maqsadida joylashtirish.

Shuningdek tabiat bog'larida tabiiy ob'ektlar va majmualarga zarar etkazish mumkin bo'lgan faoliyatlarning boshqa turlari ham tiklanishi yoki taqiqlanishi mumkin.

**Davlat tabiat yodgorliklari** noyob, o'rnini to'ldirib bo'lmaydigan, ekologik, ilmiy madaniy va estetik jihatdan qimmatli tabiat ob'ektlari bor muhofaza etiladigan tabiiy hududlardir. Davlat tabiat yodgorliklari quyidagi guruhlariga bo'linadi:

- tabiiy suv ob'ektlarini saqlab qolish uchun mo'ljallangan gidrologik (botqoq, ko'l, daryo, sharshara va boshqa) yodgorliklar;

- ayrim o'simliklarni saqlab qolish uchun mo'ljallangan botanik yodgorliklar;

- tabiiy yaralgan relief shakllarini saqlab qolish uchun mo'ljallangan geomorfologik yodgorliklar;

- qazilma ob'ektlarini saqlab qolish uchun mo'ljallangan paleontologik yodgorliklar;

- geologik va mineralogik hosilalarni saqlab qolish uchun mo'ljallangan geologik va mineralogik yodgorliklar.

Davlat tabiat yodgorliklari hududida ularning asralishiga xavf soladigan har qanday faoliyat taqiqlanadi.

Ayrim tabiiy ob'ektlar va majmualarni saqlab qolish, takror ko'paytirish va tiklash uchun mo'ljallangan hududlar buyurtma qo'riqxonalar, tabiiy pitomniklar va baliq xo'jaligi mintaqalari tariqasida tashkil etiladi.

**Buyurtma qo'riqxonalar** ayrim tabiat ob'ektlar va majmualarni saqlab qolish, takror ko'paytirish va tiklash uchun mo'ljallangan muhofaza etiladigan tabiiy hududlardir.

Buyurtma qo'riqxonalar quyidagi turlarga bo'linadi:

- o'simlik va hayvonlarning qimmatli, noyob va yo'qolib ketish xavfi ostida turgan turlarini, tirik organizmlarning ko'chib yurish yo'llarini saqlab qolish, takror ko'paytirish va tiklash uchun mo'ljallangan biologik (botanik, zoologik) buyurtma qo'riqxonalar;

- ayrim qazilma ob'ektlar va ularning majmualarini saqlab qolish uchun mo'ljallangan paleontologik buyurtma qo'riqxonalar;

- qimmatli suv ob'ektlarini saqlab qolish uchun mo'ljallangan gidrologik (botqoq, ko'l, daryo) buyurtma qo'riqxonalar;

- nodir geologik va mineralogik hosilalarni saqlovchi geologik va mineralogik buyurtma ko'riqxonalar.

Buyurtma qo'riqxonalar umumdavlat yoki mahalliy ahamiyatga molik bo'lishi mumkin.

Buyurtma qo'riqxonalar hududida, majmua (landshaft) buyurtma qo'riqxonalarini istisno etganda, ayrim tabiiy ob'ektlar va majmualarga zarar etkazishi mumkin bo'lgan har qanday faoliyat doimiy ravishda va vaqtincha cheklanadi yoki tugatiladi.

**Tabiiy pitomniklar** o'simlik va hayvonlarning ayrim turlariga zarur sharoit yaratish yo'li bilan ularni saqlab qolish, takror ko'paytirish va tiklash uchun mo'ljallangan, muhofaza etiladigan tabiiy hududlardir.

Tabiiy pitomnik qaysi o'simliklar va hayvonlar uchun mo'ljallangan bo'lsa, shu pitomnikning hududida shu o'simlik va hayvonlarning saqlab qolinishi, takror ko'paytirilishi va tiklanishiga xavf soladigan har qanday faoliyat taqiqlanadi.

**Baliq xo'jaligi mintaqalari** suv ob'ektlarini yoki ularning qismlarini o'z ichiga oladigan, noyob va yo'qolib ketish xavfi ostida turgan baliqlar va boshqa suv organizmlari turlarini saqlab qolish, takror ko'paytirish va tiklash uchun, shuningdek, baliq xo'jaligi ehtiyojlari uchun foydalaniladigan, muhofaza etiladigan tabiiy hududlardir.

Baliq xo'jaligi mintaqalarida baliqlar va boshqa suv organizmlarining saqlab qolinishi, takror ko'paytirilishi va tiklanishiga xavf soladigan har qanday faoliyat taqiqlanadi.

Muhofaza etiladigan landschaftlar kurort tabiiy hududlar, rekreatsiya mintaqalari, suvni muhofaza qilish mintaqalari, sohil bo'yi mintaqalari, suv ob'ektlarining sanitariya muhofazasi mintaqalari, er usti va er osti suvlarining hosil bo'lish mintaqalaridan iborat bo'ladi.

**Kurort tabiiy hududlar va rekreatsiya mintaqalari.** Davolash va sog'lomlashtirish xossalariga, mineral manbalarga, shifobaxsh balchiq qatlamlariga, qulay iqlim va boshqa sharoitlarga ega, muhofaza etiladigan tabiiy hududlar **kurort tabiiy hududlar** hisoblanadi. Turizm va aholining ommaviy dam olishini tashkil etish uchun qulay geografik

va iqlim sharoitlariga ega, muhofaza etiladigan tabiiy hududlar **rekreatsiya mintaqalari** hisoblanadi.

*Kurort tabiiy hududlar uchta mintaqaga bo'linadi:*

1) davolash xossalariga ega manbalar, shifobaxsh balchiq qatlamlari bor hududlar;

2) sanatoriylar, pansionatlar va dam olish uyining hududlari;

3) sanatoriylar, pansionatlar va dam olish uylariga tutash hududlar.

Rekreatsiya mintaqalari esa tabiiy ob'ektlar va majmualarning holatiga qarab turli tartibga ega maydonlarga bo'linishi mumkin.

Kurort tabiiy hududlar va rekreatsiya mintaqalarida insonning qo'plab xo'jalik faoliyatlari taqiqlanadi.

**Suvni muhofaza qilish mintaqalari, sohil bo'yi mintaqalari, suv ob'ektlarining sanitariya muhofazali mintaqalari hamda er usti va er osti suvlarining hosil bo'lish mintaqalari** daryolar, ko'llar, suv omborlari, kanallar, kollektorlar hamda boshqa suv ob'ektlarining o'zanlariga tutash muhofaza etiladigan tabiiy hududlardan iboratdir.

Suvni muhofaza qilish mintaqalari ifloslanish, bug'lanish, sayozlanishning oldini olish, eng maqbul suv tartibini saqlab turish maqsadida tashkil etiladi. Ushbu mintaqalar doirasida cheklangan xo'jalik faoliyati yuritishga yo'l qo'yiladi.

**Ayrim tabiiy resurslarni boshqarish uchun mo'ljallangan hududlar** jumlasiga o'rmon fondining eroziyaga qarshi barpo etilgan o'rmonlari, shahar o'rmonlari, shaharlarning, boshqa aholi maskanlari va sanoat markazlarining yashil mintaqalari atrofidagi o'rmonlar, alohida qimmatli o'rmonlar, yong'oqzorlar, mevali daraxtzorlar, ilmiy yoki tarixiy ahamiyatga moliko'rmonlar egallagan erlari, shuningdek ovchilik xo'jaliklarining o'simlik va hayvonot dunyosidan oqilona foydalanish uchun mo'ljallangan er maydonlaridan tashkil topadi.

Biosfera qo'riqxonalari bir qancha davlatlarda tashkil etilgan bo'lib, butun biosferadagi jarayonlarni o'rganish maqsadida tashkil etiladi. Hozir dunyoda YuNESKO dasturi bo'yicha tabiiy muhitda inson faoliyati ta'sirida ro'y berayotgan o'zgarishlarni muntazam kuzatish maqsadida 300 dan ortiq biosfera qo'riqxonalari tashkil etilgan (O'zbekistonda - 2 ta, Rossiyada - 1 ta).



Hozirda O'zbekistonda jami METH maydoni 9, 1 million gektardan oshdi. 2020 yilgacha mo'ljallangan loyiha dasturi bo'yicha METHni maydoni respublika hududining 9, 5 % ini ishg'ol etishi ko'zda tutilgan, 29 ta yangi MTEHni tashkil etish rejalashtirilgan. Mamlakatimizda hozirgi kunga kelib tabiiy qo'riqlanadigan hududlar qatorida 9 ta qo'riqxonalar, 2 ta milliy tabiat bog'i, 10 ta buyurtma 1 ta ekomarkaz hamda 5 ta tabiat yodgorligi majmualari faoliyat ko'rsatmoqda, 400 dan ortiq tabiatning noyob yodgorlik ob'ektlari hisobga olingan bo'lib, shundan 80 tagacha yaqini jonsiz tabiat unsurlaridir.

O'zbekiston hududida to'qay, cho'l, tog' landshaftlari ustuvor bo'lganligi tufayli qo'riqxonalarining aksariyati aynan shu hududlar tabiat majmualarini muhofaza qilish maqsadida tashkil etilgan.

**Tog'li hududlarda** 6 ta: Chotqol, Hisor, Zomin, Nurota, Kitob va Surxon qo'riqxonalari bo'lib, maydoni 2042,2 km<sup>2</sup> yoki muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning 9, 9 % ini, O'zbekistondagi qo'riqxonalar umumiy maydonining 94, 4% ini ishg'ol etadi.

**Tekislik** – to'qay qo'riqxonalar 2 ta: Baday-To'qay, Qizilqum va Zarafshon.

**Zomin, Ugom-Chotqol, Zarafshon va Janubiy Ustyurt** milliy tabiat bog'lari muhofaza etiladigan hududlar tizimidagi umumiy maydonning 30 % ini va qat'iy uzoq muddatli muhofazalanadigan hududlarning 74 % ini tashkil etadi.

Tog' qo'riqxonlari va ikkala milliy tabiat bog'lari ham G'arbiy Tyanshan va Pomir-Oloy tog' tizimlarining g'arbiy tarmoqlarida joylashgan.

**Davlat tabiat buyurtmalari** muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning yarmidan ortiq qismini (56 % yoki 11576 km<sup>2</sup>) ishg'ol etgan.

**Tabiat buyurtmalarining** to'rttasi suv-botqoqlik; to'rttasi tekislik (cho'l-dasht); ikkitasi esa past tog'liq hududlariga to'g'ri keladi.

## 2.2. Muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning joylashish hususiyatlari va uni fakomillashtirish

Sayyoramizdagi tiriklikning asosiy xususiyatlaridan biri xilma-xillikdir. Bu esa evolyusiya jarayonida tirik organizmlarning adaptogenezisi natijasida yuzaga kelgan. Hozirgi vaqtda olimlar tomonidan hayvonlarning 2 mln ga yaqin turi, 500 ming o'simlik turi, 100 mingdan ortiq zambrug'lar turi va 40 mingdan ortiq sodda hayvonlar turlari qayd etilgan. Bu raqamlar doimiy emas, chunki xar yili yangi turlar kashf etiladi\*

O'zbekistonda hozirda o'simliklarning 4500 ga yaqin turi mavjud bo'lib, ularning 577 turi dorivor hisoblanadi. Respublikada hayvonot dunyosi vakillarining 662 turi yashaydi. Shulardan 97 turi o'txo'r hayvonlar, 424 turdagi qushlar, 58 turdagi sudralib yuruvchilar va 83 turi baliqlardan iborat. Hozirda o'simliklarning 301 turi, hayvonlarning esa 184 turlari (o'txo'rlarning 24 turi, qushlarning 48 turi, sudralib yuruvchilarning 10 turi, baliqlarning 18 turi, 78 turdagi umurtqasizlar) O'zbekiston Respublikasi "Qizil kitobi"ga kiritilgan\*.

Biologik xilma-xillik, ayniqsa muhofaza etiladigan tabiiy hududlarda yanada samarali saqlanishi sir emas. O'zbekistonda bioxilma-xillikni saqlashda quyidagi 4 ta toifadagi muhofaza etiladigan tabiiy hududlar muhim rol o'ynaydi:

- davlat qo'riqxonalari;
- davlat milliy tabiat bog'lari;
- davlat buyurtmalari;
- davlat tabiat yodgorliklari.

Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar tizimida 9 ta davlat qo'riqxonasi, 2 ta milliy tabiat bog'lari, 11 ta davlat buyurtmalari mavjud bo'lib, umumiy muhofaza etiladigan hududlar maydoni 20 520 km<sup>2</sup>, yoki Respublika hududining 4,6 foizini tashkil etadi(1-jadval).

\* Хужамназаров Ў. ва бошқалар. Экология набарномаси. 2006. 9-сон. 22-б.

\* Миллий маъруза. 2006. 85-90 – б.

**Asosiy muhofaza etiladigan tabiiy hududlar tarmoqlari tarkibi va shakllanish dinamikasi\***

METH toifalari	METH ning yillar bo'yicha soni o'zgarishi			Maydoni, km <sup>2</sup>
	1980	1990	1999	
Qo'riqxonalar	3	10	9	2164
Milliy bog'lar	1	2	2	6061
Buyurtmalar	5	6	11	12186, 5
Tabiat yodgorliklari	0	1	3	34, 8

Qo'riqxonalar joylashishida ma'lum qonuniyatlar mavjud. Ular tekisliklarda tabiat mintaqalari (zonalari) tamoyilida, tog'li o'lkalarda esa lanshaftning balandlik mintaqalari tamoyili asosida joylashgan.

Mutaxassislar xulosasiga ko'ra qo'riqxonalar maydoni o'rta hisobda cho'l mintaqasi uchun 250 ming. ga, dashtda esa 10, 7 ming ga atrofida bo'lgani maqsadga muvofiq.

METH maydoni Respublikamizda salkam 5 % ni tashkil etgani holda bu ko'rsatkichni boshqa mamlakatlar bilan taqqoslasak: Litvada – 4 %, Latviyada – 5 %, Yaponiyada – 14 %, Angilyada – 9 %, Gollandiyada - 3,5 %, Germaniyada – 16 %, AQShda – 12 % dan ortiqni tashkil etadi. Mamlakatda barqaror ekologik-iqtisodiy rivojlanishga erishishda uning ekotizimlari bioxilma-xilligini saqlashda METHning ahamiyati katta. Mamlakat maydoniga nisbatan METH ulushi ortib borishi ekotizimlar barqarorligini oshishida muhim omil hisoblanadi.

O'zbekistondagi mavjud qo'riqxonalar yuqoridan ma'lum, asosan, tog'li hududlar va vodiy – to'qaylarida joylashgan. Cho'l-qum ekotizimlari qo'riqxonalar bilan etarli ta'minlanmagan. Maydoni katta va tuzilmasi murakkab gipsli (toshloq) cho'l-tekislik, voha, tog'oldi ekotizimlarda qo'riqxonalar deyarli yo'q.

\* Крейцберг – Мухина Е.А. и др. Труды заповедников Узбекистана, Т. 2004, вып. 4-5., с.11.



METHni – muqobil joylashtirish va rivojlantirish ko'plab ekotizimlarda evolyutsion jarayonlarni me'yorida davom etishi va genetik xilma-xillikni saqlashida muhim ahamiyat kasb etadi. Shuni inobatga olib METH maydonini taklif etilayotgan yangi loyihalar asosida deyarli ikki martaga (10 %) kengaytirishni maqsadga muvofiq deb bilamiz.

### **2.3 O'zbekistonda muhofaza etiladigan tabiiy hududlar tizimini tashkil etishning landshaft-ekologik asoslari**

O'zbekiston tabiati so'nggi ming yilliklar davomida inson tomonidan o'zlashtirib kelinmoqda. Shuning uchun o'lkada inson qo'li tegmagan, uning bevosita va bilvosita ta'siriga uchramagan ekotizimlar deyarli qolmagan. Bunday sharoitda METHlarni turli toifalarini makonda talablarini qondirish xususiyatlariga ko'ra joylashtirish muhim ahamiyatga ega. Respublikada METH tuzumini shunday tashkil etish kerakki, birinchidan tabiiy muhitning ekologik muvozanatini optimal saqlashga, ikkinchidan esa ular turli maqsadlar uchun (rekreatsiya, ekotizim va h.k.) foydalanishga qodir bo'lsin.

O'zbekistonda METHning optimal tizimini barpo qilishda quyidagi landshaft-ekologik asoslar va mezonlarni e'tiborga olish maqsadga muvofiqdir;

I. Ekotizimlarning o'ziga xos murakkab va shu birga yaxlit hosila sifatida ularning xususiyatlarini hisobga olish.

METH tizimini yaratishning dastlabki bosqichida geoekologik loyihalashtirish amalga oshiriladi. Bunda tabiiy, tabiiy-antropogen ekotizimlardan foydalanish va muhofaza qilish geotizimli yondashuv asosida amalga oshirish ko'zda tutiladi.

Geotizimli yondashuvning asosiy vazifasi, turli darajadagi ekotizimlarni agrotizimlar, urbotizimlar bilan o'zaro aloqasida shakllangan ekologik muvozanatni saqlashdir. Shunday qilib ma'lum hududda tashkil etilayotgan METH tizimi tabiat bilan jamiyatning barcha tizimlari faoliyatini nisbatan ixtilofsiz bo'lishi uchun zarur sharoitlarni yaratishi lozim

2. METH respublika hududida shakillangan cho'l, adir, tog' mintaqalarni barcha ekotizim turlari bo'yicha shakllanishi lozim. Chunki METH o'zlari joylashgan ekotizimlarni tarkibiy qismi sifatida yaxlitlikni (bir butunlikni) tashkil etadi va uning muhim xususiyatlarini o'zida aks ettiradi. Shuning uchun, har qanday METH atrofida uni ekotizimlar bilan bog'lab turuvchi qo'riqlanma (oraliq) sanitariya-himoya chegaralari (mintaqalari)ni tashkil etish maqbuldir. Bu chegaralar METHni salbiy antropogen ta'siridan himoya qilish bilan birga ekotizimning boshqa komponentlari va morfologik tuzilmasi yaratmalari bilan ham uzviy aloqadorlikni saqlash imkonini beradi.

3. METHni tanlashni optimal bo'lishi uchun respublika bo'yicha jadal va oddiy ravishda foydalanilayotgan erlar o'rtasidagi nisbatni o'rganish va hisobga olish, jadal ravishda o'zlashtirilgan hududlardagi noyob ob'ektlarning muhofazasi tez kunlarda amalga oshirilmasa, insonlarning xo'jalik faoliyati natijisida ular o'zlarining qimmatli xususiyatlarini yo'qotishi mumkin.

4. Noyob va qimmatli tabiiy hududlarni saqlash va muhofazasini tashkil etishda ulardan qanday maqsadlarda foydalanish mumkinligini aniqlash. Chunki har bir METHning hususiyatlari e'tiborga olinsa, tabiat muvozanatini saqlovchi ko'p faoliyatli METH tizimi yaratiladi.

5. Respublika hududida METH tizimi turli vazifalarni bajaruvchi METH, masalan: qo'riqxonasi, milliy tabiat bog'i, buyurtma qo'riqxonasi, davlat tabiat yodgorliklari va o'ziga xos tabiiy hududlardan iborat bo'lsagina ko'zlangan maqsad samarali bo'lishi. Yuqoridagi toifadagi METH respublikaning o'ziga xos ayrim xususiyatlarida tashkil etiladi. Demak, ular bir-biridan ancha uzoq masofada joylashishi tabiiy. Ularni birlashtirishda muhozaga olingan boshqa tabiiy hududlar o'ziga xos "ko'prik" vazifasini bajaradi.

6. METH tizimini barpo etishda ular maydonning optimal kattaligini e'tiborga olish. Chunki O'zbekiston hududidagi METHning yagona tizimi viloyatlar va tumanlar hududidagi METHdan tashkil topadi. Shuning uchun ular maydoni tumanlar va viloyatlar maydoniga bog'liq bo'ladi.

7. METH tizimini tashkil etishda hududdagi erdan foydalanish tuzilmasi xususiyatlarini inobatga olish. Chunki respublika hududidagi tabiiy majmualar tuzilmasi erdan foydalanish tuzilmasida aniq ifodalanadi.

METHni tashkil etishda yuqoridagi tamoyillar hisobga olinsa, madaniy ekotizimlarni shakllanishida va ularni iqtisodiy samaradorligini oshirishda, tabiiy resurslarni qayta tiklashda, ekotizimlarning noyob xususiyatlarini va insonlar hayoti uchun qulay tabiiy muhitni saqlashda ahamiyati ortadi

### **Tayanch iboralar:**

Tabiiy ob'ektlar, tabiiy resurslarni boshqarish, baliq xo'jaligi mintaqalari, davlat qo'riqxonalari, davlat tabiat yodgorliklari, kurort tabiiy hududlar, majmua (landshaft) buyurtma qo'riqxonalari, muhofaza etiladigan landshaftlar, rekreatsiya mintaqalari, rekreatsiya, tabiat bog'lari, tabiiy pitomniklar

### **Nazorat uchun savollar:**

1. Qanday hududlar muhofaza etiladigan tabiiy hududlar deb ataladi?
2. METHlarning qanday toifalarini bilasiz?
3. Qo'riqxonalarning joylashtirish tamoyilini tushuntirib bering.
4. Tog' hududlaridagi qo'riqxonalariga tavsif bering.
5. Tekisliklardagi qo'riqxonalariga tavsif bering
6. O'zbekiston milliy tabiat bog'lari to'g'risida gapirib bering
7. METHlarni tashkil etish nima uchun zarur?
8. METH hususan qo'riqxonalar va milliy tabiat bog'larining ekologik va ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarini tushuntirib bering.
9. METH qanday ilmiy va tarbiyaviy vazifalarni bajaradi.
10. O'zbekistonning yana qaysi hududlarida qo'riqxonalar yoki boshqa toifadagi METH lar tashkil etish mumkin deb o'ylaysiz? Nima uchun?

# III BOB. O'ZBEKISTON QO'RIQXONALARI VA MILLIY TABIAT BOG'LARINING TABIATNI MUHOFAZA QILISHDAGI O'RNI

## 3.1. O'zbekiston qo'riqxonalari

**Chotqol tog'-o'rmon biosfera qo'riqxonasi.** Toshkent viloyati hududida Chotqol tizmasining g'arbiy tarmoqlarida joylashgan bo'lib, ikkita alohida: Maydantol va Boshqizilsoy hududlaridan iborat. O'rmonli erlar maydoni 14088 ga yoki umumiy maydonning 39 % ini ishg'ol etgani holda, shuning 6959 ga i Maydantol, 7129 ga i esa Boshqizilsoy hududlariga to'g'ri keladi. O'rmon bilan bevosita qoplangan jami maydoni 8336 ga bo'lgani holda, archa o'rmonlari 3444, 7 ga ni tashkil etadi. Archa o'rmonlari asosan dengiz sathidan 1600 m dan 2400 m gacha balndliklarda o'sadi. Qo'riqxonada 7047 ga maydon o'tloqlar, 81 ga suv havzalari bilan band. Qo'riqxonada o'simliklar dunyosi 1168 turdan iborat. Hayvonot olami 221 turni tashkil etgani holda: qushlarning 168 turi, yana shuningdek sut emizuvchilar (44 tur), reptiliyalar, suv va quruqda yashovchilar va baliqlar mavjud. Tyanshan qo'ng'ir ayig'i, qor barsi, Menzibir sug'uri kabilar noyob turlardir. Qushlarning 23 turi ham noyob va alohida muhofazaga muhtoj turlar hisoblanadi. Qo'riqxonada umuman G'arbiy Tyanshan tog' ekotizimlarini saqlash va atrof-tabiiy muhit holati yuzasidan ekologik monitoringni amalga oshirish maqsadida tashkil etilgan. 1995 yili biosfera qo'riqxonalari tizimiga kiritilgan.

**Hisor qo'riqxonasi** Qashqadaryo viloyatining Yakkabog' va Shahrisabz tumanlari hududida, Hisor tizmasining g'arbiy tarmoqlarida joylashgan, 1983 yilda tashkil etilgan. Maydoni 80986 ga, shundan 12203 ga o'rmon, 27450 ga si o'tloqlar bilan band. Dengiz sathidan 4000 m dan baland bo'lgan xilma-xil baland tog' ekotizimlari mavjud. O'simliklarning 870 tur vakillari o'sadi. Ular ichida tog' va baland tog'larga xos noyob, kamyob va endemik o'simlik turlari talaygina. Bu hududda hayvonot olamining 253 turi yashaydi. Shulardan qor barsi, Tyanshan qo'ng'ir ayig'i, turkiston kalamushi va boshqalar O'zbekiston

“Qizil kitobi”ga kiritilgan. Qo‘riqxonada 2 turdagi baliqlar, 19 turdagi suvda va quruqlikda yashovchilar, 103 turdagi qushlar, 28 turdagi sut emizuvchilar yashaydi. Qushlarning 24 turi kamyob va noyob hisoblanadi. Qo‘riqxonada Hisor tizmasi tabiiy majmualari va ekotizimlarini saqlash maqsadida tashkil etilgan.

**Zomin tog‘-o‘rmon qo‘riqxonasi.** Jizzax viloyatining Zomin tumanida Turkiston tog‘ tizmasining shimolida joylashgan. 1926 yilda mazkur hududda O‘zbekistonda birinchi qo‘riqxonasi – Guralash tashkil etilgan; o‘tgan asrning 30-40-yillarida o‘rmon xo‘jaligi tarkibiga kiritilgan, 1960 yilda qayta tashkil topgan. Hozirda maydoni 26840 ga, shundan 22137 ga si o‘rmon bilan qoplangan. Qo‘riqxonasi hududida Turkiston tizmasining g‘arbiy yonbag‘rida: past, o‘rta va baland tog‘ mintaqalaridan iborat tog‘ zanjiri yaqqol namoyon bo‘ladi. Balandlik dengiz sathidan 1760 m dan 3500 m gacha o‘zgaradi. Hududning janubiy qismi Turkiston tizmasining tik yonbag‘ri bo‘lib, chuqur daralar bilan o‘yilgan. Shimoliy qism – nisbatan yotiq, terrasali relef bo‘lib, qalin mergel, lyossimon jinslar bilan qoplangan.

Qo‘riqxonasi hududidan Zomin va Sangzor daryolari irmoqlari Kulsoy va Guralashsoylar oqib o‘tadi. Hududga yiliga o‘rtacha 405 mm yog‘in yog‘adi, mutloq yuqori harorat + 33 °C (iyul, avgust), dekabrda – 34 °C gacha pasayishi mumkin. Zomin qo‘riqxonasida o‘simliklarning 70 oilasiga mansub turi O‘zbekiston Respublikasi Qizil kitobiga kiritilgan, 48 tur – Turkiston tog‘ tizmasi g‘arbiy qismi endemiklaridir. Shifobaxsh o‘simliklarning 20 dan ortiq, manzaralilarning 15 dan ortiq, xo‘jalik nuqtai nazaridan qimmatli o‘simliklarning o‘nlab turlari uchraydi.

Qo‘riqxonasi hududida uch turdagi archa o‘sadi: Zarafshon, Turkiston va yarimsharsimon. Yonbag‘irlarning yuqori qismida yarimsharsimon archa Turkiston archasi bilan aralash holda o‘ssa, pastki qismlarda Zarafshon archasi o‘sadi. Hayvonot olami juda xilma-xil. Sut emizuvchilarning 40 ga yaqin turlari yashaydi, qushlarning esa 132 turi. Archa mintaqasi, ayniqsa, qushlarga boy. Hayvonlardan: bo‘ri, to‘ng‘iz, quyon, sibir tog‘ echkisi, Tyanshan qo‘ng‘ir ayig‘i qimmatli hisoblanadi, ularning ko‘plari Qizil kitobdan joy egallashgan.

Qo'riqxonaga u erdagi archa o'rmonlari holatini hamda ular bilan bog'liqlikdagi hayvonot olamini muhofaza qilish va ilmiy tadqiqotlar maqsadida tashkil etilgan.

**Nurota tog'-yong'oqzor qo'riqxonasi.** Jizzax viloyatining Forish tumanida Nurota tog' tizmasining shimoliy yonbag'irida joylashgan bo'lib, 1975 yilda tashkil etilgan.

Qo'riqxonaga maydoni 17752 ga, shundan 2529 ga i o'rmon bilan qoplangan. Hudud tog'li relefdan iborat bo'lib, dengiz sathidan 400 m dan 2100 m gacha balandlikkacha o'zgaradi, eng baland nuqtasi Hayotboshi cho'qqisi (2169 m) hisoblanadi. Qo'riqxonaga hududidan bir qancha katta va kichik soylar oqib o'tadi. Yillik o'rtacha yog'in 400 mm atrofida, yozgi eng yuqori harorat 43 °C, yanvarda esa - 30 °C gacha tushadi. Tuproqlari qora - bo'z tuproqlardan jigarrang tog'-o'rmon tuproqlargacha o'zgaradi. O'simliklari o'ziga xos bo'lib, 660-900 (27 endemik) tur uchraydi. Zarafshon archasi, astragal kabilar noyob hisoblanadi. Daraxtsimonlar ko'proq soylarning qayirlarida o'sadi. Hududda o'rmon tashkil etuvchi asosiy daraxt turi - grek yong'og'idir. Yana shuningdek olma, o'rik, olxo'rining yovvoyi turlari, tut, tol, terak, qayrag'och kabilarni ham uchratish mumkin. Toshloq yonbag'irlarda pista va Buxoro bodomi o'sadi. Efimer va efimeroid o'simliklar tog' oldi hududlarda keng tarqalgan bo'lib, suv ayrig'ich mintaqasigacha ko'tarilgan.

Hayvonot olami tarkibida 183 tur uchraydi. Ular ichida Seversov qo'yi, qo'ng'ir qarg'a, kobra iloni va boshqalar O'zbekiston Respublikasi Qizil kitobiga kiritilgan. Nurota tog' tizmasi orqali qushlar migratsiya yo'lining asosiylaridan biri o'tadi. Qo'riqxonaga grek yong'og'ining xilma-xil turlari genofondini saqlash va tabiatni muhofaza qilish Xalqaro ittifoqi (MSOP)ning Qizil kitobidan joy olgan dunyodagi yagona Seversov qo'yi populyatsiyalarini muhofaza qilish maqsadida tashkil etilgan.

**Surxon davlat qo'riqxonasi.** Surxandaryo viloyati Sherobod tumanining shimoli-g'arbida joylashgan bo'lib, ikkita alohida maydonlar: Orolpayg'ambar oroli hamda Ko'hitang tog' tizmasining sharqiy yonbag'iridan iborat.

Orolpayg'ambar qismi maydoni 3092 ga dan iborat bo'lib, 1971 yilda vodiy – to'qay ekotizimlari va buxoro bug'usini saqlash maqsadida tashkil etilgan edi. Hozirda orol chegara qo'shinlari ixtiyoriga berilgan. 1987 yil Ko'xitang davlat buyurtmasi Orolpayg'ambar qo'riqxonasi bilan birlashtirilib Surxon qo'riqxonasi tashkil etildi. Umumiy maydoni 24554 ga. Ko'hitang qismi uchun tog'-o'rmon ekotizimlari xarakterli. Uning hududi Pomir-Oloy tog' tizimidagi Hisor tizmasining janubi – g'arbiy tarmoqlarida joylashgani holda dengiz sathidan 1500 m dan 3157 m gacha ko'tarilgan. Hudud umuman shimoli-g'arbdan janubi-sharqqa pasayib boradi. Yuqori g'arbiy chegarasi Turkmaniston davlat chegarasi hisoblanadi.

Qo'riqxonada ko'plab doimiy va vaqtinchalik oqib o'tuvchi gidrotarmoqlar mavjud. Ulardan eng yirigi Laylakkon bo'lib, qo'riqxonada shimoliy chegarasidan boshlanib, uni kesib o'tib, Boysun tumani Xatan qishlog'iga past tog' adirlari orqali chiqadi. Ko'hitang subtropik iqlimda joylashgan. Kishki o'rtacha harorat balandliklarga qarab +2, +3, +5 °C ga o'zgarsa, mutloq eng yuqori harorat yozda 32 – 52 °C ga etishi mumkin. Yog'in asosan yomg'ir tarzida bo'lib, qor dekabrning ikkinchi yarmidan fevralgacha saqlanishi mumkin.

Qo'riqxonada florasi boy – 578 turdan ortiq. Ko'hitangdagi o'simliklarning ko'plari noyob hisoblanib, faqat shu hududdagina uchraydi. Ularning 23 turi O'zbekiston Respublikasi Qizil kitobidan joy egallagan. O'simlik dunyosi balandlik bo'yicha to'rtta mintaqada tashkil etgan:

- tog' chala cho'llar mintaqasi;
- tog' chala savannalar mintaqasi;
- tog' archazorlar mintaqasi;
- dasht mintaqasi.

O'rmon, o'tloq, dasht, va boshqalar 16620 ga (67, 7 %), qolgan 7839 ga (31, 9) toshloq va qoyalardan iborat (V.Lim va boshqalar, 2005).

O'rmon bilan qoplangan maydonlar 9288 ga yoki hududning 37, 8% ini egallaydi. O'rmon hosil qiluvchi tur asosan Zarafshon archasi hisoblanadi.

Hayvonot olami 290 tur qushlar va 37 tur sut emizuvchilardan iborat. Baliqlarning bir turi, suvda va quruqda yashovchilarning 2 turi, reptiliyalarning 26 turi, qushlarning 74, sut emizuvchilarning 23 turini Ko'hitang hududida uchratish mumkin. Ularning ko'plari Qizil kitob varaqalarida o'z o'rniga ega. Qo'riqxonaga Ko'hitang tizmasi tog' ekotizimlarini saqlash maqsadida tashkil etilgan.

**Kitob davlat geologik qo'riqxonasi.** Qashqadaryo viloyatining Kitob tumanida Zarafshon tizmasining janubi – g'arbiy tarmoqlarida Jinnidaryoning chap sohilida joylashgan. Maydoni 5378 ga bo'lib, tog' reifidan iborat. Hududning dengiz sathidan mutloq balandligi 1300 m dan 2650 m gacha ko'tarilgan, 1979 yilda tashkil topgan. Qo'riqxonaga hududida: Obi-Safit, Xo'jaqo'rg'on, Zanziyaban, Novabak, Ko'shnov, Qizilolma, Kula, Jarshafi, Tushlik kabi o'z go'zalliklari va manzaralariga ega takrorlanmas tog' daralari mavjud. Hududdan Qorasuv va Shirdapqisoy daryolari oqib o'tadi.

Qo'riqxonaga hududi paleozoy dengiz yotqiziqlari bilan qoplangan. Unda ko'plab organik qazilmalarning noyob turlarini uchratish mumkin. Yer tarixiga oid paleontologik – stratigrafik ob'ektlar tadqiqot qilinadi. Hozirda shunday yodgorliklarga mansub 504 tur aniqlangan.

Hududda 800 tur o'simliklar o'sadi. Shulardan 19 turi G'arbiy Hisor endemiklari hisoblanadi. O'rmon hosil qiluvchi asosiy o'simlik – Zarafshon archasidir. Shuningdek yana ko'plab boshqa daraxt turlarini ham uchratish mumkin. Daraxtsimon butalarning 60 dan ortiq turi uchraydi. Manzaralilarning 300 turini uchratish mumkin. O'simliklarning 280 turi xalq tabobatida keng qo'llaniladi, 22 turi esa Respublika Qizil kitobiga kiritilgan.

Qo'riqxonaga hayvonot olami boy, qiziq va o'ziga xosdir. Faunasi 486 turni o'z ichiga oladi. Kapalaklarning 80 turi, umurtqali hayvonlarning jami 168 turi mavjud bo'lib, shulardan 10 turi O'zbekiston Respublikasi Qizil kitobiga kiritilgan.

Qo'riqxonaga paleontologik-stratigrafik ob'ektlarni saqlash va o'rganish maqsadida tashkil etilgan.

**Baday-To'qay davlat qo'riqxonasi.** Quyi Amudaryoning o'ng sohilida Qoraqalpog'iston Respublikasining Beruniy va Kegeyli

tumanlari hududida joylashgan, maydoni 6462 ga, 70 % maydoni to'qay o'simliklari bilan qoplangan, 1971 yilda tashkil etilgan.

Iqlimida qish ancha davomiyligi va O'zbekistondagi eng past xaroratligi bilan farqlanadi. Qor qoplami doimiy emas. Harorat yozda +44 +45 °C darajadan, qishda - 30 °C gacha o'zgaradi. Yog'imning yillik o'rtacha miqdori 100 mm dan ortmaydi, uning 40 % i bahor mavsumiga to'g'ri keladi. Maydoni nisbatan kichik bo'lgani bilan biologik resurslarga ancha boy. O'simliklarning 103 turi mavjud, hayvonot olaminiki 160 turdan ortiq. Xususan qushlarning 91, sut emizuvchilarning 15, baliqlarning ham 15 turi hayot kechiradi. 1970 yillarning oxiridan boshlab Buxoro bug'usini qayta tiklash bilan ham shug'ullaniladi. Orol dengizining qurishi, Amudaryo suvining kamayishi oqibatida o'simliklar ancha degradatsiyaga uchragan.

Qo'riqxonaga asosan Amudaryo oqimining o'zgarishi sharoitida to'qay o'rmonlari va hayvonot dunyosining saqlash maqsadida tashkil etilgan.

**Zarafshon davlat qo'riqxonasi.** Samarqand viloyatining Bulung'ur va Jomboy tumanlari hududida Zarafshon daryosi sohillarida 47 km masofadagi vodiy-qayirida joylashgan. U 1975 yilda tashkil etilgan. Maydoni 2352 ga dan iborat bo'lib, shuning 6680 ga si o'rmon bilan qoplangan o'simliklar dunyosining 308 turdagi namoyondalari uchraydi. O'rmon hosil qiluvchi daraxt, butalar 18 turdan iboratdir. Turong'il, jiyda, tol, maymunjon va chakanda (oblepixa) tabiiy holda o'sadi. Hudud O'zbekistonda chakanda tekislikda o'sadigan yagona joy hisoblanadi.

Tabiiy oziqaning nisbatan boyligi ko'plab hayvon va qushlar uchun makon hisoblanadi. Hayvonlarning 359 turi uchratilsa, yilning turli mavsumlarida 160 turdan ortiq qushlarni ko'rish mumkin. Tulki, quyon, Zarafshon tustovuqlari ancha va nazoratga olingan. Qo'riqxonada asosan muhofazaga olingan turlar: chakanda o'simligi va Zarafshon tustovug'i hisoblanadi. Hozirda qo'riqxonada Zarafshon tustovug'ining soni 5000 dan ortdi (1978 yilda 2000 tadan ortig'i hisobga olingan edi) hongul soni 30 tadan ortdi, noyob turlar 32 ta.

Qo'riqxonaning asosiy maqsadi ham Zarafshon daryosining o'rtta oqimidagi to'qay majmualari va kamyob zarafshon tustovug'i turini saqlash va tiklash. Hozirda Buxoro bug'usini ko'paytirish borasida ishlar olib borilmoqda.

**Qizilqum davlat qo'riqxonasi.** 1971 yilda tashkil etilgan bo'lib Buxoro viloyatining Romitan va Xorazm viloyatining Do'stlik tumanlari hududida joylashgan. Maydoni 10311 ga, shundan 5144 ga i o'rmon, 6964 ga i qumli cho'l, 3177 ga i Amudaryo qayiriga to'g'ri keladi (30 km), 160 turdagi o'simliklarni uchratish mumkin: oqsaksovul, turang'il, tol, qandim, miduza, bosh juzg'uni, cho'llarga hos o't o'simliklari o'sadi. Taqir tuproqlarda yantoq, qora saksovul kabilar, allyuvial – botqoq tuproqlarda qamishsimonlar uchraydi. Hayvonot olamida daryo vodiysi va qumli – cho'l hududlari xilma-xilligi bilan ajralib turadi. Qushlarning 197 turi, sut emizuvchilarning 37, reptiliyalarning 23 turi mavjud. Qumliklarda qisman jayron, ko'proq dasht mushugi, quyon, to'ng'iz, tulki va bo'ri yashaydi. Amudaryo tustovug'i alohida qimmatga ega, yana ko'p qushlarga boy (burgut). Asosiy muhofaza hayvoni shu joyga xos Buxoro bug'usi bo'lib, ular soni qo'riqxonaga tashkil etilgandan buyon 10 martadan ortiqqa ko'paydi. Qo'riqxonaga qumli cho'l ekotizimlari, Amudaryoning quyi oqimidagi to'qay o'rmonlari va hayvonot olamini muhofaza qilish maqsadida tashkil etilgan.

### 3.2. O'zbekistonning milliy tabiat bog'lari

**Ugom-Chotqol milliy tabiat bog'i.** Toshkent viloyati hududida Bo'stonliq va Parkent tumanlari mintaqasida joylashgan. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1990 yil 30 iyuldagi qarori asosida tashkil etilgan. Bog'ni tashkil etilishidan asosiy maqsad G'arbiy Tyanshanning noyob (etalon) tabiiy majmualari va genofondini saqlashdir.

Milliy tabiat bog'i Chirchiq – Ohangaron daryolari tog'oldi – tog' tabiiy geografik okrugida Qorjantog', Ugom, Piskom va Chotqol tog' tizmalarini o'z ichiga oladi. Milliy bog' hududi vazifa mintaqalari

bo'lmish: agrobog', faol rekreatsiya, boshqariladigan rekreatsiya, qo'riqxonalar, qo'riqlanadigan toifaga teng va tabiiy ekotizimlar mintaqalari toifasidagi hududlarga ajratiladi. Barcha ekotizimlar morfotektonik belgilari bo'yicha tog' ekotizimlari sinfiga mansubdir.

Hudud mintaqalanishining asosiy qonuniyatlari O'rta Osiyoning barcha tog'liklariga xos bo'lgan balandlik mintaqalaridir.


G'arbiy Tyanshan tizmalari o'ziga xos orografik tuzilishiga ega. Tizmalarning aksariyati G'arbiy Tyanshanning asosiy qismi Talas Olatog'idan boshlanib, shimoli-sharqdan janubi-g'arbga tomon (Qorjantog', Ugom, Piskom, Ko'ksuv va Chotqol tizmalari) yo'nalishida ajralib chiqqan. Bunday geografik tuzilish balandlik mintaqalari ekotizimlarining alohida Turon tipini shakllanishiga olib kelgan.

Milliy tabiat bog'i hududida hozirda ekotizimlarning quyidagi balandlik mintaqalari ajratiladi:

- baland tog' glyatsiyal – nival mintaqasi;
- baland tog' o'tloq-dasht mintaqasi;
- o'rtacha baland tog' o'rmon – o'tloq – dasht mintaqasi;
- tog'oldi tekislik - cho'l-dasht mintaqasi.

Baland tog' glyatsial – nival mintaqalar unchalik katta maydonni egallamaydi. Qorjantog' tizmasining eng baland cho'qqisi Mingbuloq (2834 m), Ugom tizmasiniki – Sayram cho'qqisi (4238m), Piskomniki – Beshtor (4299 m), Chotqolniki O'zbekiston hududida Qirchandi cho'qqisi (4045 m). Mintaqada uncha keng bo'lmagan maydonlarda muzliklar (Piskom tizmasida 47 ta muzlik bo'lib, eng kattalarining uzunligi 4-5 km), qorliklar, firn dalalar va qoyalar bilan mintaqaning qiyi chegarasi dengiz sathidan 3600 m balanddan o'tadi. Sovuq, qoyali, yaxshi rivojlanmagan shag'alli tuproqlarda o'simliklar juda kambag'al.

Baland tog' o'tloq-dasht mintaqasi qishda doimiy qor bilan qoplanganda, kamida 4 oy qor saqlanadi. Mintaqaning pastki chegarasi Chirchiq daryosi havzasida 2500-2600 m ga to'g'ri keladi. Asosiy tuproqlari: subalp va alp, tog'-o'tloq; toshloq, shag'al, torfli tog'-o'tloq va baland tog' sur-qo'ng'ir tuproqlardir. O'simliklardan qo'ng'irbosh,



mushuk quyruq, taran, qiziltikan, Alp lolasi, yovvoyi piyoz eng ko'p uchraydi.

**O'rtacha balnd tog' o'rmon - o'tloq - dasht** mintaqasi tog' yonbag'irlarida 1200 m dan 2800 m gacha bo'lgan balandliklarni ishg'ol qilgan. Iqlim nam, tuproqlarning asosiylari: qo'ng'ir tog' - o'rmon tuprog'idir. Tog'lar ekspozitsiyasiga qarab yana: to'q jigar rang, och jigar rang (janubiy yonbag'irlarda) tuproqlar ham keng tarqalgan. O'simliklardan archaning uchala turi: Zarafshon, Turkiston va yarimsharsimon (saur) uchraydi. Shuningdek, yong'oq, zarang, qayin, qayrag'och va yovvoyi mevali daraxtlar o'rmon tarzida o'sadi. Ular ostida baland bo'yli o'tlar hamda baland bo'yli butalardan: bodom, do'lana, zirk, namatak keng tarqalgan.

**Tog' oldi cho'l** - dasht mintaqasida asosan och va tipik bo'z tuproqlar tarqalgan. Bunday hududlarda ko'proq efemir va efmeroidlardan: lola, lolaqizg'aldoq, rang va qo'ng'irbosh o'sadi.

Milliy tabiat bog'i iqlimi qishda sovuq, yozda salqin va sernam bo'ladi. Yanvar oyida o'rtacha harorat - 3-14 °C, (Chorvoqda -2,7 °C, Chimyonda -4,7 °C, Chotqolda -14, 2 °C), eng past harorat - 32 °C dan ham pasayishi mumkin. Iyulniki 20-26 °C (Chimyonda + 20 °C), eng yuqori harorat 30-40 °C ga etishi mumkin, sovuqsiz kunlar yilda 200 kundi tashkil etadi. Tog'larning harbiy yonbag'rlariga yiliga 1000 mm gacha yog'in tushsa, sharqda 200 mm gacha etadi.

Milliy tabiat bog'i hududidan asosan Chirchiq daryosi oqib o'tadi. Chirchiq daryosi Chorvoq suv omboriga quyiladigan Chotqol va Piskom daryolaridan boshlanadi. So'ngra o'ng tomondan Ugom, Qizilsuv, Qoramqulsoy, G'alavasoy, Oqsoqotasoy, Parkentsoy, Boshqizilsoy kabi irmoqlarni qo'shib oladi. Milliy tabiat bog'i hududida ko'llar juda ko'p, ularning aksariyati tog'larning baland qismlarida joylashgan.

Chorvoq suv ombori eng hushmanzara go'shalardan biri hisoblanadi. U 1977 yilda Chotqol va Piskom daryolarining quyilish joyidan 5 km janubda to'g'on qurilishidan so'ng vujudga keltirilgan. Suv ombori to'g'onining balandligi - 168 m, uzunligi 768 m, yuqori qismining kengligi 12 m ni tashkil etadi. Chorvoq suv ombori Chotqol daryosidan Obiraxmat qishlog'igacha 18 km, Piskom daryosidan Nanay

qishlog'igacha 22 km, Ko'ksuv daryosidan Burchmullagacha 4 km, suv  
sathi 40 km<sup>2</sup> to'liq suv sig'imi hajmi 2 mlrd m<sup>3</sup> ni tashkil etadi.

Milliy tabiat bog'i ajoyib – xushmanzara tabiat manzaralari, noyob  
o'simlik va hayvonot dunyosi hamda tabiiy, tarixiy – arxeologik  
yodgorliklarga juda boy. Tabiat bog'ining yana bir muhim boyligi zilol  
uylari, go'zal manzarali, sof iqlimli shifobaxsh maskanlaridir. Hozirda  
ushbu milliy tabiat bog'i hududida ko'plab rekreatsiya ob'ektlari  
taryod etilgan. Xususan, Bo'stonliq tumani hududida ko'plab  
tashkilotlarning sanatoriy va profilaktoriylari, dam olish uylari,  
o'quvchilar lagerlari joylashtirilgan. Tumanda davolanish mumkin  
bo'lgan 5 ta sanatoriya, 5 ta dam olish uyi tashkil qilingan. Chunonchi,  
Tovoqsoy, Chimyon bolalar sanatoriyasi, Xumson, Oqtosh, Chotqol  
kabi sanatoriyalar mavjud. Bu yerda bir yo'la 1380 ta odam davolanish  
imkoniyatiga ega bo'lib, bir yilda davolanganlar soni 20, 0 nung kishiga  
etadi.

Shu bilan birga Bo'stonliq tumanida Chirchiq va Toshkent  
shahridagi ko'plab korxonalarining mavsumiy dam olish maskanlari  
joylashtirilgan (Pediatr, Soyliq, Chotqol, Oqtosh kabilar shular  
jumlasidandir). Mavsumiy dam olish maskanlarida 1039 o'rin bo'lib, bir  
yilda 7904 ishchi va xizmatchilar hordiq chiqarish imkoniyatiga  
egadirlar.

Bundan tashqari, tumanda bir qancha pansionatlar ham  
oylashgan. Ulardan Olmaliq Ammofos zavodining "Chimgan",  
"O'zolmosoltin" birlashmasining "Oltin yombi", Toshkent  
maliyotsozlik zavodini "Sokol", "Kristall" kabi pansionatlari ancha  
mashhur. Bu pansionatlarda 1062 o'rin mavjud bo'lib, bir yo'la 480  
kishi, bir yilda esa 4636 kishi dam olishi mumkin.

Mintaqadagi Chorvoq suv ombori ham viloyat aholisining sevimli  
dam olish maskanlaridan biridir. Suv ombor atrofida toza tog' havosi,  
dengiz iqlimi, suv havzasi hamda unga quyiluvchi ko'plab daryo va  
soylar bo'ylarida turli pansionatlar, dam olish uylari, sog'lomlashtirish  
muassasalari tashkil etilgan. Bu yerlarda turistlar uchun qiziqarli tog'  
sayohatlari uyushtirish yo'lga qo'yilgan. Tog'larda dam oluvchilardan

tashqari sport o'yinlari – tog' chang'isi, alpinizm bilan shug'ullannuvchilar uchun ham imkoniyatlar etarli.

**Zomin milliy tabiat bog'i** 1977 yilda Markaziy Osiyoda birinchi tashkil etilgan bog' hisoblanadi. Milliy bog' hududida deyarli o'zlashtirilmagan archa o'rmonlari va ular bilan birga boshqa o'simlik va hayvonot dunyosi saqlanadi. Bog' hududi, Turkiston tog' tizmasining shimoliy yonbag'rida Jizzax viloyatining Zomin tumanida joylashgan. Umumiy maydoni 24110 ga bo'lib, dengiz sathidan 1000 m dan 4033 m gacha bo'lgan balandliklar mavjud. Eng baland nuqtasi Shoukartog' cho'qqisi hisoblanadi. Tik kanondagi Shariloq sharsharasi, Supa platolari o'ziga xos ko'rinish-manzara tashkil etadi. Milliy tabiat bog'i chegarasida tog' balandligi 2482 m dan ortadi. Balandlik shimolga tomon pasaya boradi, yonbag'rlar yuzasi ko'plab soylar bilan o'yilgan.

Hudud iqlimi keskin kontinental. Eng yuqori harorat iyul – avgust oylarida ( $25-15^{\circ}\text{C}$ ), past harorat dekabr, yanvar ( $-14^{\circ}\text{C}$  gacha) oylarida kuzatiladi. Qish barqaror davom etib, 5 oygacha cho'zilishi mumkin. Milliy bog' hududida yog'in o'rtacha 405 mm, 70 % dan ortig'i aprel – oktyabr davriga to'g'ri keladi. Qor qoplami tog'li qismlarda iyungacha saqlandi.

Bog' hududidan ko'plab kichik daryolar: Zominsuvning irmoqlari: O'rikli, Qashqarsuv, Yettisuv, Oyko'l; Sangzor daryosi irmoqlari: Guralash, Qizil, Tarist kabialar oqib o'tadi.

Balandlik bo'yicha iqlim - tuproq sharoitlariga bog'liq tarzda o'simlik olami juda xilma-xil va o'ziga xosligi bilan ajralib turadi.

Bog' hududdida o'simliklarning uch xil balndlik mintaqalari ajratiladi.:

- tog' dashtlari;
- tog' o'rmonlari;
- baland tog' (subalp) o'tloqlari.

**Tog' dasht mintaqasi** dengiz sathidan 1300 m dan 2300 m gacha boradi. Tuproqlari bo'z tuproq turlaridan iborat. Asosan yaltirbosh, rang, chalov, bug'doyiq, karrak, gulxayri, betaga, chalov, bahorda efemerlar o'sadi. Butalardan do'lana, pista o'chraydi.

**O'rmon mintaqasi** 2100 m dan boshlanib 2700 m gacha ko'tariladi. Asosan tog'-o'rmon jigar rang tuproq hukumron. Asosiy o'rmon hosil qiluvchilari Zarashfon, yarimsharsimon va Turkiston archalaridir. Bulardan tashqari pista, igr'ay, zirk o'sadi. Baland bo'yi dashtga xos o'tlar ham uchraydi.

Baland tog' subalp o'tloqlari mintaqasida tog'-o'tloq dasht tuprog'i hukmronlik qiladi. Ularda qo'ng'irbosh, rang, taran, anjiabar, taktak o'sadi. Eng yuqori namgarchilik ko'p yerlarda tog'-o'tloq tuprog'ini ham uchratish mumkin. Relief juda o'yilgan, ko'plab qoyalar mavjud. Yuqorida havo harorati pastligidan past bo'yi yostiqsimon o'simliklar keng tarqalgan. Ma'lumotlarga qaraganda tog' hududida 700 turdan ortiq yuksak o'simliklar mavjud bo'lib, shulardan 13 turi O'zbekiston Respublikasi Qizil kitobiga kiritilgan. 20 turdan ortiq shifobaxsh, 15 turdan ortiq manzarali o'simliklar uchraydi. Bulardan tashqari iqtisodiyot nuqtai nazardan qimmatli bo'lganlari ham ko'p – bular efir – moyli, mevali, oziqabop asalli, saqichsimon moddali va boshqalar. Bog' hududida 216 turdan ortiq soyabonli qo'ziqorinlar uchrasada, ularni yanada o'rganish va turini aniqlash taqazo etiladi.

Bog' hayvonot olami xilma-xil, boy bo'lib, O'zbekistonning archa o'rmonzorlariga xos barcha turlarning deyarli mavjudligi bilan xarakterlanadi. Tabiiy ozuqa manbalariga, boshpana va in qo'yish joylariga boyligi barcha xilma-xil biomajmualarning hayot kechirishini ta'minlaydi.

Milliy bog'da 6 turdagi baliqlar, 2 tur suvda –quruqda yashovchilar, 14 tur kemiruvchilar, 100 dan ortiq tur qushlar, 28 turdan ortiq sut emizuvchilarning vakillari yashaydi. Bog'dagi hayvonlardan qor barsi va boshqa turlar tabiatni Muhofaza qilish Xalqaro ittifoqi Qizil kitobiga kiritilgan.

Milliy tabiat bog'i takrorlanmas xushmanzara davolash o'chog'idir. Bu manzildagi o'ziga xos tabiiy sharoit kishilar sog'ligini tiklashda juda asqotadi. Shu tufayli ham mintaqada bir qator rekreatsiya maskanlari bunyod etilgan. Hozirda bog' hududida "O'rikli", "Buxorai-Sharif", "Hilol", "Sharshara" va "Zilol" pansionatlari hamda "Zomin" davolash maskani kabilar faoliyat ko'rsatmoqda. Milliy bog' ko'plab

bolalar va kattalar, sportchilar va mahalliy sayyohlar dam oladigan O'zbekistonning eng manzarali, moviy osmonli, archa hudi bursib turgan, toza havoga boy tabiiy joylaridan biridir.

Hududlar tabiatini muhofazaga olish ham erdan foydalanishning bir turi hisoblanadi. Biroq u qishloq va o'rmon xo'jaliklaridan va boshqa maqsadlardagi foydalanshdan ko'ra o'zgacharoq.

Qo'riqlanadigan tarmoqlar turi uchun qo'riqxonalar hududini ananaviy xo'jalik yuritishdan ilmiy maqsadlar uchun ajratib olish alohida xarakterlidir. Yer joylarni tadqiqot tashkilotlari tomonidan foydalanish ham yerdan foydalanishning shakli – alohida turi hisoblanadi. Muhofaza etiladigan tabiiy hududlarda ham (milliy tabiat bog'lari) yerdan qishloq xo'jalik, rekreatsiya, o'rmonchilik, ovchilik va boshqa maqsadlarda foydalanish davom etadi. Ba'zi mintaqa yoki turlarda bunday foydalanish to'liq emas, cheklangan holda amalga oshirilishi mumkin (sohil bo'yi va boshqa mintaqalar).

**Zarafshon milliy tabiat bog'i.** O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 7 fevraldagi "Zarafshon milliy tabiat bog'ini tashkil etish to'g'risida"gi qarori qasosida Zarafshon qo'riqxonasi negizida tashkil topdi.

**Janubiy Ustyurt milliy tabiat bog'i.** U O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 11 noyabrdagi qarori asosida Qoraqalpog'istonning Qo'ng'iro't tumanida tashkil etilgan. Milliy tabiat bog'ining maydoni 1,4 mln ga bo'lib, u davlat tabiatni muhofaza qilish muassasasi shaklida tashkil etilgan hamda Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi tuzilmasi hisoblanadi.

Ma'lumki Ustyurt platosi Qoraqalpog'istonning shimolida joylashgan. Orol dengizi hozirgi qirg'oqlaridan g'arbdan va Orolqum cho'lidan tik yonbag'ir – chinklar bilan chegaralanadi. Platoda 60 dan ortiq qadimgi birlamchi jamoa turar joy va 1000 dan ortiq arxitektura yodgorliklarining qoldiqlari aniqlangan. Bu hududlarda shuningdek massaget qabilalari yashaganligi haqida ma'lumotlar mavjud. Qadimgi karvon saroylar qoldiqlari va skiflar madaniyatiga ta'luqli topilmalar bundan dalolatdir.

### **3.3. Mintaqalardagi (Farg'ona vodiysi misolida)<sup>8</sup> muhofaza etiladigan tabiiy hududlar, ularning hozirgi holati va kelajagi**

O'rta Osiyoning dastlabki tadqiqotchilaridan A.F.Meddendorf vodiyni "O'rta Osiyoning javohiri" deb bejizga aytmagan. Vodiyning O'zbekiston qismida 50 dan ortiq mineral suv buloqlari ro'yxatga olingan va tekshirilgan bo'lib, u yerlarda turli dam olish maskanlari va shifoxonalar faoliyat ko'rsatmoqda. Shu bilan birga Farg'ona vodiysi sayyohlarda katta qiziqish uyg'otadigan tarixiy - me'moriy yodgorliklari hamda ekoturistik ob'ektlar va rekreatsiya resurslari bilan ham mashhurdir

Vodiyda Chortoq, Chimyon, Shohimardon, O'zbekiston, Bog'i-bo'ston kabi shifoxona oromgoh maskanlari va sanatoriy-profilaktoriylar tashkil etilgan

Vodiy tabiiy sharoitining o'ziga xosligi, takrorlanmasligi o'z o'rnida uning hududida METHlar maydonini kengaytirishni taqozo etmoqda. Bu ishlarni amalga oshirishda Farg'ona davlat universitetining geografiya, ekologiya, botanika kafedralari va Farg'ona viloyati tabiatni muhofaza qilish qo'mitasi xodimlarining o'zaro hamkorlikda olib borayotgan ilmiy tadqiqot ishlari e'tiborga loyiqdir.

Hozirgi kunga qadar Farg'ona viloyati hududida oltmishdan ortiq qimmatli tabiiy ob'ektlar hisobga olindi va o'rganildi. Ulardan 37 tasi tabiat yodgorligi sifatida muhofazaga olingan (2-jadval).

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki muhofazaga olingan 37 ta tabiat yodgorligidan 30 tasini botanik 2 tasini gidrologik 5 tasini landshaft yodgorliklari tashkil etadi. Gidrologik landshaft yodgorliklari juda ozchilikni tashkil etadi, geologik va geomorfologik ob'ektlar umuman muhofazaga olinmagan. Bundan tashqari ularning balandlik mintaqalari va viloyat rayonlari bo'yicha tarqalishi ham turlichadir. Masalan, muhozaga olingan tabiiy yodgorliklardan 34 tasi tekislik landshaftlarida, 3 tasigina adir landshaftlarida joylashgan, tog' landshaftlarida esa birorta tabiiy ob'ektlar muhofazaga olinmagan.

<sup>8</sup>Abdug'aniyev O.I. va b., 2001. Abdug'aniyev I. va b., 2003 maqolalari asosida yozilgan

Farg'ona viloyatida muhofazaga olingan va muhofazaga olishga tavsiya etilgan tabiiy hududlar.

№	Tabiiy hududlar	Muhofazaga olingan tabiiy hududlar			Muhofazaga olishga tavsiya etilgan tabiiy hududlar		
		Tekislik	Adir	Tog'	Tekislik	Adir	Tog'
<b>Tabiat yodgorliklari</b>							
1. Botanik	28	2			10	5	8
2. Hidrologik	1	1			10	11	9
3. Geologik					2	2	3
4. Geomorfologik					3	3	5
5. Landshaft	5				5	4	4
<b>Qo'riqxonasi</b>							
6. Markaziy Farg'ona					1		
<b>Buyurtma qo'riqxonasi</b>							
7. Sirdaryo sohili					1		
<b>Milliy bog'</b>							
8. Shoximardon – Yordon							1
Jami	34	3			32	25	30

Holbuki, So'x, Farg'ona tumanlarining hududlarini ma'lum qismi tog' mintaqasida joylashgan. Bag'dod, Dang'ara, Beshariq, Yaypan, Quva, Furqat, Uchko'prik. So'x kabi tumanlar hududida birorta muhofaza etiladigan tabiiy ob'ekt muhofazaga olinmagan.

Yuqoridagi ma'lumotlardan ko'rinadiki hozirgi vaqtda Farg'ona viloyati hududida tabiat va uning barcha xususiyatlarini to'la qamrab olgan, uni muhofaza qilishga, ulardan oqilona foydalanishga imkon beradigan tabiiy hududlar tizimi hali barpo etilmagan. Shunday bo'lsada, alohida ta'kidlash joizki, o'tgan yillarda viloyat hududida tashkil etilgan tabiat yodgorliklarini antropogen ta'sir natijasida

o'zgarishga uchrayotgan landshaftlarning noyob qismlarini saqlab qolishda muhim rolni bajaradilar va bajarmoqdalar. Masalan, "Markaziy Farg'ona" (150 ga) va "Yozyovon cho'llari" (1850 ga) kabi tabiat yodgorliklarni tashkil etilishi yildan-yilga maydoni antropogen ta'sir natijasida qisqarib borayotgan qumli cho'l landshaftlarining noyob qismlarini saqlab, ijobiy ta'sir ko'rsatdi. "Markaziy Farg'ona" tabiat yodgorligida qadimgi Sirdaryoning qoldiq vodiysida saqlangan do'ng – marza qumlar va ular orasidagi pastqamliklarda o'suvchi turong'ilzorlar, "Yozyovon cho'llar" yodgorligi hududida barخان – do'ng, do'ng – marza, barخان – marza qumlar landshafti qoniqarli muhofaza qilinmoqda. Yodgorliklar hududlarida tabiiy majmualarning, ayniqsa o'simlik va hayvonot dunyosini tiklanish jarayoni ancha tez yuz bermoqda. Hozirgi kunda "Yozyovon cho'llari" da qizil astragal, oq saksovul, echkemar, ko'rma ilon, qirg'ovul, to'ng'iz kabilarni uchratish mumkin. Yaqinda viloyat tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi qoshida Farg'ona davlat universiteti, Farg'ona politexnika insituti, qo'mita televidenie va gazeta xodimlaridan tashkil etilgan ilmiy kengash yig'ilishida farg'ona viloyatida tabiat muhofazasi va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish bo'yicha tuzilgan bosh reja muhokama qilindi hamda hozir, yaqin yillar va kelajakda bu sohada olib boriladigan tadbirlar va vazifalar ishlab chiqildi. Bulardan muhimlari:

1. Farg'ona viloyatida hisobga olingan tabiiy hududlarning huquqiy maqomi, ularning geografik mavqei, miqdor va sifat ko'rsatkichlari, ekologik, ilmiy, rekreatsiya, maorifiy va boshqa xil ahamiyati, yer egalari va yerdan foydalanuvchilar haqidagi ma'lumotlarni qamrab oluvchi davlat kadastrini tuzish.

2. Viloyat hududida METH tizimini tashkil etish maqsadida tabiiy hududlarni balandlik mintaqalari, turli landshaftlar va rayonlar bo'yicha tanlash.

3. Tabiiy hududlarni tanlashni optimal bo'lishi uchun viloyat hududida jadal va ekstensiv ravishda foydalanilayotgan yerlar o'rtasidagi nisbatni o'rganish va hisobga olish. Jadal o'zlashtirishga uchragan hududlardagi noyob tabiiy ob'ektlarni muhofazasi shu kunlarda amalga oshirilmasa, kishilarni xo'jalik faoliyati natijasida ular

o'zining qimmatli xususiyatlarini yo'qotishi mumkin. Shuning uchun ham hozirgi kunda yo'qolish arafasida turgan Akbarbobo, Zilxa, Buyayda, Rapqon kabi kichik qum massivlarini muhofazaga olish bo'yicha zarur hujjatlar tayyorlanmoqda.

4. Noyob va qimmatli tabiiy hududlarni saqlash va muhofaza qilish asosida ulardan turli maqsadlar uchun foydalanish yo'llarini ishlab chiqish

5. Yaqin kelajakda viloyat hududida davlat qo'riqxonasi, davlat buyurtma qo'riqxonasi va davlat milliy bog'ini tashkiliy asoslarini ishlab chiqish. "Yozyovon cho'llari" va "Markaziy Farg'ona" tabiat yodgorligi bazasida Farg'ona, Namangan, Andijon viloyatlari hududlaridagi o'zlashtirilmagan qumli landshaftlarni ma'lum maydonlarini qo'shish hisobiga davlat qo'riqxonasini tashkil qilish mumkin. Shunday qilinsa, cho'l landshaftlari va ularning o'simlik, hayvonot dunyosi vakillarini muhofaza qilish hamda tiklash, ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish imkoniyatlari oshgan bo'lar edi. Viloyatning shimoli-sharqiy qismida, Sirdaryoning chap sohili va unga tutash yerlarida buyurtma qo'riqxonasi tashkil etilsa, sohil yaqinidagi to'qayzorlar va ularning hayvonot dunyosi shuningdek qirg'ovul va suvda suzuvchi qushlar muhofazaga olinadi.

Yuqoridagi vazifalar amalga oshirilsa, ajoyib o'lkaning birlig go'zalligini o'ziga jo qilgan METH tizimi hozirgi zamon geokologik talablarga javob bera oladi (Abdug'aniev I, Abdug'aniev O., 2003).

### **Tayanch tushunchalar:**

Buyurtma, milliy tabiat bog'i, biosfera qo'riqxonasi, glyatsial-neval, baland tog' o'tloq-dasht, tog' oldi cho'l-dasht, alp, subalp o'tloqlar, o'rmon mintaqasi, ekologik "bong", ekologik, ijtimoiy, iqtisodiy, ilmiy, tarbiyaviy vazifalar.

### **Nazorat uchun savollar:**

1. Chotqol tog'-o'rmon biosfera qo'riqxonasi qaysi tog tizmalarda joylashgan?
2. Hisor qo'riqxonasida qanday hayvonlar muhofaza ostiga olingan?

3. Zomin tog'-o'rmon qo'riqxonasida qanday archa turlari uchraydi?
4. Nurota tog'-yong'oqzor qo'riqxonasi nechanchi yilda tashkil topgan?
5. Mamlakatimizda qaysi qo'riqxonada dastlab tashkil topgan?
6. Ugom-Chotqol milliy tabiat bog'lari to'g'risida gapirib bering.
7. Kitob davlat geologik qo'riqxonasida nimalar muhofaza ostiga olingan?
8. Zarafshon davlat qo'riqxonasida asosan qanday turdagi dorivor o'simliklar uchraydi?

## IV BOB. MUHOFAZA ETILADIGAN TABIIY HUDUDLARNING ASOSIY VAZIFALARI VA ULAR FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH

### 4.1. Muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning asosiy vazifalari

METH faoliyatining chuqur tahlili ularning vazifasini juda bisyorligini ko'rsatadi. Biz ularning asosiylarini ma'lum guruhlariga ajratgan holda o'rganishni lozim topdik, bu vazifalar quyidagilar:

- ekologik;
- ijtimoiy;
- iqtisodiy;
- ilmiy;
- tarbiyaviy.

**Ekologik vazifalari.** METH tarkibidagi tog', o'rmon, o'tloq, daryo, ko'l va boshqalar o'ziga xos muhit hosil qiladi. Masalan, tog' o'rmonlari tuproq eroziyasi va toshqinlarining oldini oladi, suv va tuproqni muhofaza qiladi, suv oqimini tartibga soladi. METH ekologik muvozanatni va tabiiy resurslarni saqlash bilan birga bir yo'la ular holati to'g'risida kerakli axborotlarni yetkazadi va chiqindilar uchun biofiltr vazifasini o'taydi. Biosferadagi tozalash xususiyatining 80-60 % i aynan, tabiiy o'simliklar hissasiga to'g'ri kelishini mutaxassislar ta'kidlaydilar. Ularning fikriga ko'ra, 1 ga o'rmon shuncha maydondagi suv havzasiga nisbatan havoni 10 martadan ortiq salqinlashtiradi va tozalaydi. Bir tup daraxtning bir sutkalik bug'lantirishi orqali salqinlashtirish samarasi 250 ming kkal bo'lib, bu 10 ta xona maishiy sovutgichi (konditsioner)ning 20 soat mobaynidagi ish faoliyati natijasi demakdir. Yana shuningdek, 1 ga o'rmon yil davomida 18 mln m<sup>3</sup> havoni tozalashini hamda archa daraxtlarni chiqaradigan shifobaxsh fenotsidni qayd etish lozim.

Qo'riqxonalar yoki tabiat milliy bog'ida ma'lum bir o'lka yoki geografik mintaqaning namunasi (nusxasi) kelajak avlod uchun saqlanib qoladi. Bunday hududlarda tabiatning harakterli, qiziqarli ekotizmlari va tabiat elementlarining ba'zilar abadul-abad o'zining tabiiy holicha

saqlanadi. Masalan, cho'l yoki to'qay ekotizimlarining harakterli joylari, g'orlar, nurash tufayli vujudga kelgan rel'ef shakllari yoki turi kamayib ketgan va kamayib ketayotgan o'simlik va hayvonlar METHda saqlanib, ko'paytirilib tabiiy holicha kelajak avlodlarga etkaziladi. Biz yuqorida tadqiq etilgan qo'riqxon va milliy tabiat bog'larida shunday noyob turlar saqlanayotganligi, ularning ko'plarini "Qizil kitob"lar sarhadlariga muxirlanganligi, yana qanchalari undan joy olish uchun "navbatda" turganligini guvohi bo'ldik.

BMTning sobiq bosh kotibi Kofe Anann 2002 yil Yoxannsburgda bo'lib o'tgan "Atrof-muhit va rivojlanish" ga bag'ishlangan "Rio+10" Xalqaro sammitidagi nutqida ekotizimlarni boshqarish borasiga alohida e'tibor qaratgani bejiz emas. "Hozirgi davrda 11 mingdan ortiq biologik turlar yo'qolib ketish havfi ostida turibdi, 800 turdan ko'prog'i ozuqa muhitlarining yo'qolishi tufayli qirilib bo'ldi. Yana 5 mingdan ortig'ining holati ham o'ta xatarli, agar zudlikda tegishli choralar ko'rilmasa ular populyatsialarining qisqarishi muqarrar" (2002).

Ugom-Chotqol milliy tabiat bog'i tog'-vodiy shamoli tufayli mintaqa yaqinidagi sanoat shaharlari, xususan Toshkent shahri havosini tozalashda muhim rol o'ynaydi, shu bois uni Toshkent shahrining "o'pkasi" deyish mumkin. Bir so'z bilan aytganda METHning ekologik vazifalari bisyor bo'lib bunday misollarni ko'plab keltirish mumkin.

**Ijtimoiy vazifalari.** Tabiatga bo'lgan inson munosabati jamiyat uchun ijtimoiy jihatdan katta naf keltiradi. Tabiat bilan muloqot insonlar o'rtasida o'zaro kelishmovchilik va qonun buzarliliklarni sonini kamaytiradi, bu orqali sog'liklari saqlanishini ta'minlaydi. Tabiat quchog'ida muntazam dam oluvchi shaxslar orasida amalda muntazam spirtli ichimliklar iste'mol qiluvchilar bo'lmaydi, ba'zi surinkali va ruxiy kasalliklar tarqalishi kam uchraydi, tabiat bilan muloqot mehnat unimdorligini va jamiyat a'zolarining samarali mehnatlari davomiyligini oshiradi. Ilmiy tadqiqotlar natijalari, faqatgina dam olish kunining o'zida yashil mintaqa o'rmonlaridagi hordiq ishlab chiqarish mehnat unimdorligini yiliga o'rtacha 0,3% ga oshirishini ko'rsatadi.

METH hududidagi o'rmonlarning ijtimoiy vazifalari shuni ko'rsatadiki, ularning tabiiy holda o'sishi yog'och qilib kesilgan

tannarxidan ancha yuqori baholanadi. Maslan, Germaniya o'rmonlarining yog'och mahsulotlari 17 mlrd markaga baholangan bo'lsa, o'rmonlarning kesilmasdan tabiiy holicha saqlanishidan keladigan ijtimoiy foydasi 53 mlrd markaga teng ekan. AQShda 1 akr. o'rmonning suvni tozalash xususiyatining o'zi yiliga 400 AQSh dollariga baholanadi ( 1 ga – 1000 AQSh dollar).

Biz Ugom-Chotqol milliy tabiat bog'ining bir qismidagi oromgohlarda yiliga qancha kishilar o'z sog'liqlarini tiklashlari va dam olishlari mumkin ekanligiga to'xtalgan edik. Yana shunga misol tariqasida mintaqadagi Chimyon oromgohlarining o'zida Toshkent shahridan keluvchi bir kunlik dam oluvchilar soni 3000 kishigacha, dam olish kunlari esa ular sonining 10 000 kishigacha etganligi inobatga olinsa va bu raqamlar mavjud ikkala milliy tabiat bog'lari ko'lamida hisob-kitob qilinsa, uning ijtimoiy ahamiyatining tasavvur etish oson bo'larmikin - Nanay, Chimyon-Beldirsoy rekreatsiya mintaqalaridagi.

Baden-Baden massivi (Germaniya) o'rmonlarining barcha "ijtimoiy" vazifalari (suvni tartibga solish, tozalash, rekreatsiya va h.k) ni qo'shib hisoblaganda uning har gektari 4800 nemis markasi, Moskva viloyati o'rmonlariniki 8070 rubl baholangan (1970 yillar pul birligida) (Pabst, 1972; Gofinan, 1977). METH ma'lum maqsadda joylik aholini ish bilan ta'minlashda ham muhim rol o'ynaydi. Hozir qo'riqxona, milliy tabiat bog'larining o'zida qancha xodimlar mehnat qilmoqda. Bundan tashqari rekreatsiya maskanlaridagi mutaxassis va xizmat ko'rsatishdagi xodimlar, ularga bevosita va bilvosita xizmat ko'rsatishi sohalarida ko'plab fuqarolar ish bilan band bo'ladi.

**Iqtisodiy vazifalari.** O'tgan asrning 70-yillari o'rtalarida AQSh da turizm sanoatidan ko'rilgan umumiy daromat 50 mlrd AQSh dollarini tashkil etgani holda milliy tabiat bog'lari faoliyatidan kelgan yalpi foyda 11 mlrd AQSh dollaridan ortiq bo'lgan. Bu ayni holda shu tizimga sarflangan harajatlardan 55 marta ko'p demakdir. Yoki ekin maydonlarining 3 % ginasida dala va tuproqni himoya qilish maqsadidagi ixotazorlarning barpo etilishi hosildorolikni 20-50 % oshirishi mumkin ekanligi fanda isbotlangan Eroziyani oldini olish

maqsadida tashkil etilgan o'rmonlar esa ekin dalalari hosildorligini 2-5 martagacha ko'paytirishi ham o'z isbotini topgan.

METHdagi aksariyat rekreatsiya mintaqalari iqtisodiy jihatdan ma'lum miqdorda foyda keltiradi.

METH ayrim toifalarida ovchilik, baliqchilik, mo'ynachilik va ular hududidan yig'iladigan dorivor, ziravor va mevalarning iqtisodiy salohiyati sezilarli. Hududlardagi dov-daraxtlarni butash, shakl berish orqali kesilgan shoh-shabbalar yoqilg'i-o'tin sifatida foydalaniladi. METHning ma'lum maydonlari hududida mol boqiladi, pichan o'riladi, umuman qishloq xujalikda foydalaniladi. Masalan, Bo'stonliq va Parkent tumanlari tog'li hududlarida bir qancha uzumchilik, bog'dorchilik, sabzavot-kartoshka, asalarichilik, chorvachilik kabi sohalarga ixtisoslashgan turli toifadagi argar xo'jalik va fermer jamoalari faoliyat ko'rsatmoqda. Ushbu tumanlar yer fondi tuzilmasida qishloq xo'jalikda band erlar 50 % dan ko'proqni tashkil etsa, 12 % ga yaqini o'rmon bilan qoplangan, 30 % ga yaqin erlar esa qishloq xo'jalikda foydalanilmaydi. Bo'stonliq tumanining qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtirishda Toshkent viloyatidagi ulushi ancha sezilarli: donning 14 %, kartoshkaning 21 %, sabzavotlarning 6 %, mevaning 10 %, uzumning 28 %, go'shtning salkam 3 %, junning 13 % i aynan shu tumanga to'g'ri keladi (2012).

Tabiiy muhitning xilma-xilliklari ardoqlab saqlansa, tabiat ekotizimlari shunchalik turg'un-barqaror bo'ladi. Xilma-xillikni saqlash uchun esa tabiataning jonli va jonsiz elementlarini saqlash zarur. Bu, albatta xo'jalikni oqilona yuritishni taqazo etadi. Shundagina tabiat insonlardan o'z noz-ne'matlarini ayamay uni davomli tarzda ta'minlab turadi.

**Ilmiy vazifalari.** METHning qator toifalarida o'ziga hos ilmiy-tadqiqot ishlari amalga oshiriladi. Ayniqsa, qo'riqxonalarining yaxshi saqlangan va hatto o'zgarmagan elementlari, organizmlar bilan muhit o'rtasidagi mavjud qonuniyatlarni, ekotizimlarning rivojlanish qonuniyatlarini ilmiy jixatdan tadqiq qiladigan (o'rganadigan) tabiiy-ilmiy laboratoriyadir. Qo'riqxonalarda tabiiy majmualarni chuqur o'rganib, tabiiy resurslarni boshqarish yo'llari ishlab chiqiladi. Tabiat

hoisalarining sabablari va rivojlanish qonuniyatlarini, ularning o'zaro bog'liqligi, aloqadorligi va bir-biriga ta'sirini aniqlashda qo'riqxonalaridan boshqa ekotizimlar oqizlik qiladi. Tabiat va uning elementlari, umuman ekotizimlarning rivojlanish qonuniyatlarini faqat tabiiy sharoitda, ya'ni qo'riqxonalarda o'rganish imkoniyati mavjud. Qo'riqxonalarda tabiatning barcha elementlari ustidan yil davomida uzluksiz kuzatishlar olib boriladi. Bu ishlarda qo'riqxonamutaxassislaridan tashqari respublika FA ning tegishli ilmiy-tadqiqot institutlari xodimlari, xorijiy mutaxassislar ham qatnashadilar. Qo'riqxonadagi izlanishlar atrofdagi antropogen ekotizimlardagi salbiy yoki ijobiy o'zgarishlarga taqqoslanib, insonning tabiatga ta'siri oqibatlariga ta'luqli bo'lgan prognozlar ishlab chiqiladi. Chotqol qo'riqxonasi biosfera qo'riqxonasi maqomiga ega bo'lganligi sababli butun biosferada ro'y beradigan o'zgarishlarning global monitoringida ham ishtirok etmoqda. Kelajakda dunyo hamjamiyati ishtirokida Nurota qo'riqonasini ham shu toifaga o'tkazish ko'zda tutilgan.

**Tarbiyaviy vazifalari.** "Tabiatning o'zi dono muallim", "Tabiat juda maftunkor, chunki u go'zalliksiz hayot kechirolmaydi" iboralarida, ayniqsa qo'riqxonamilliy tabiat bog'larining ajoyib, go'zal tabiat manzaralari, sarviqomat tog'u-toshlari, zilol obi-hayot, chashma-soylari kishilarni o'ziga maftun etmay qolmaydi. Tabiatga nisbatan muhabbat hislarining, uyg'onishi kishilarda o'z-o'zidan ona tabiatga muhabbat, vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantiradi. Yoshligidan tabiat shaydosi bo'lgan insonlarda mehr-muhabbat, shirinsuhanlik, hushmuomilalik, xurmat-ehitrom, to'g'ri so'zlik, yoqimtoylik kabi xislatlar erta va yetarli darajada shakllanadi. Har yili yuzlab-minglab o'quvchi va talabalar METH dagi ko'plab oromgohlarda dam oladilar, sog'liklarini tiklaydilar, sayyohlik yo'nalishlarida sayrlarda ishtirok etadilar, joylardagi tabiat muzeylariga tashrif buyuradilar. U erlarda ko'rgan-kechirganlari, xotiralari ularning fe'l-atvori, xulqini shakllantirishga ta'sir ko'rsatmay qolmaydi.

Ugom-Chotqol yoki boshqa METH da qancha-qancha pir-avliyolarning o'tgan maskanlari mavjud. Ularga tashrif davomida

**kishilarda ajdodlarga hurmat tarbiyasi shakllanishi bilan birga dunyoviy va diniy bilimlari ortadi.**

Tabiatga shaydolik insonlarda estetik tarbiyani kuchaytiradi, **ilmga, adabiyotga, san'atga va boshqa ijodiy ishlarga ilhom bag'ishlaydi.** Buyuk fransuz olimi J.Kyurining quyidagi gaplari yuqoridagi fikrimizni to'liq isbotlaydi: "Men kechalari xushmanzara o'rmonlar ichiga kirib miriqib dam olsam, estetik zavqlansam ertasi kuni miyam yangi g'oyalar bilan to'lar edi".

She'riyatimiz sultoni Mir Alisher Navoiy va ko'plab boshqa **shoiru-yozuvchilarimiz o'zlarining qator asarlarini tabiatdan ta'sirlanib yozganlar.**

O'zbek mo'yqalami ustalari: O.Tansiqboev, R.Axmedov, Z.Inog'omov, N.G.Qoraxon, R.Temurov va boshqalar eng zo'r **asarlarini tabiat go'zalliklaridan estetik zavqlanib yaratganlar.** Chaykovskiy, Betxoven, Shtraus kabi bastakorlar tabiat manzaralarini **qoyilmaqom qilib matn etgan ijodkorlar hisoblanadi.**

Davlat qo'riqxonalari. (landshaft) buyurtma qo'riqxonalari hamda **tabiat bog'lari quyidagilar hisobidan moliyalashtiriladi:**

- O'zbekiston Respublikasi davlat byudjeti mablag'lari;
- tabiatni muhofaza qilish fondlari mablag'lari;
- ilmiy tadqiqot, tabiatni muhofaza qilish, reklama, noshirlik va **ma'rifiy faoliyatdan keladigan daromadlar;**

- METHga yetkazilgan zararining o'rmini qoplashga qaratilgan **tushumlar;**

- METHning tartibini buzganlik uchun undirilgan jarima pullari;
- musodara etilgan ovchilik qurollari va baliqchilik asboblari **realizatsiya qilishdan, qonunga xilof ravishda qo'lga kiritilgan o'lja mahsulotini sotishdan tushgan pullar;**

- yuridik va jismoniy shaxslarning xayriya yordamlari;
- qonun xujjatlarida ta'qiqlanmagan boshqa tushumlar.

## 4.2. Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar faoliyatini takomillashtirishning ekologik-iqtisodiy jihatlari

METHning ekologik-iqtisodiy faoliyatini takomillashtirishni aksariyat hollarda milliy tabiat bog'lari misolida ko'rish maqsadga muvofiqdir. Boshqa turdagi METHga inson xo'jalik faoliyati cheklangan yoki umuman taqiqlangan. Milliy tabiat bog'lari hududida esa rekreatsiya va ekoturizimni rivojlantirish imkoniyati mavjud.

Rekreatsiya sohasining iqtisodiyot tuzilmasida tutgan o'rnini benihoya katta. O'zbekistonning rekreatsiya resurslari, uning turlari bo'yicha ko'pligi jihatidan oldingi o'rinlardan birini egallaydi. Nafaqat dam olish, sayyohlik, sog'liqni tiklash, shuningdek chet el sayyohlarini qabul qilish uchun ham keng imkoniyatlar mavjud. Qulay tabiiy sharoitlar va resurslar, tarovatli tabiat go'shalari, nafasatli betakror tabiiy tog' manzaralari, suv omborlari, ko'llar, daryo va kanallar har qanday kishini lol qoldiradi. Oromgohlarda muntazam dam olish, go'zal tabiat qo'yinida bo'lish, sport bilan shug'ullanishni hamma orzu qiladi.

O'zbekistonda nafaqat yilning issiq vaqtlarida, shuningdek qish va kuzda ham faol dam olish imkoniyatlari mavjud. Chimyondagi qishki sport-dam olish majmuasi buning yorqin dalilidir. Bu oromgohda 1800-2000 m balandlikda kuzdan - bahorgacha qor bilan bog'liq bo'lgan barcha sport turlari va o'yinlari bilan shug'ullanish imkoniyatlari mavjud.

Har qanday dam olish turi ma'lum hududda amalga oshiriladi, lekin mazkur hudud ma'lum muddatga hordiq chiqarish uchun kelganlarni ekologik jihatdan o'ziga sig'dira oladimi yoki yo'qmi bu masala uning ekologik sig'imi bilan aniqlanadi. Ekologik sig'im shunday o'rtacha me'yorki unda rekreatantlar miqdori ekologik maydonga to'g'ri kelib, undan oshmasligi lozim, aks holda tabiiy muvozanat buziladi. Bu borda ma'lum andozalar, me'yoriy ko'rsatkichlar ishlab chiqilgan. Masalan, yozda suv havzalarida cho'milayotganlar uchun dengiz plyaji har bir cho'miluvchi uchun kamida 5 m<sup>2</sup>, ichki suv havzalarida 8 m<sup>2</sup>, bolalarga esa 4 m<sup>2</sup>, daryolarda har bir cho'miluvchi uchun kamida 5-10 m<sup>2</sup>, oqmas havzalarda 10-15

$m^2$  akvatoriya bo'lishi lozim. Agarda cho'miluvchilar miqdori ko'rsatilgan miqdordan ortib ketsa, u holda suvning ifloslanishi tezlashadi, binobarin gidroekologik muvozanat buziladi, uning oqibatlari barchaga ayon.

Tog' yonbag'irlari, qirlar, adirlarda bahorda (lola sayli, yalpiz yig'ish, oddiy hordiq chiqarish) dam oluvchilar soni keskin ortadi, bunda ma'lum kichik hududda rekreantlarning soni mo'ljaldagidan ko'p bo'ladi. Natijada o'simlik va tuproq toptaladi, turli giyohlarning miqdori keskin kamayadi, dam oluvchilar o'zlari bilan olib kelgan ba'zi narsalarni (chiqindi sifatida) shu joyda qoldiradilar (oziq-ovqat qutilari, qog'ozlar, ichimlik idishlari, sigaret qoldiqlari va b), binobarin atrof-muhit ifloslanadi. Hisob-kitoblarga ko'ra bunday sharoitda dam oluvchilarning o'rtacha miqdori har gektar maydonga bir kunda 18-20 kishini tashkil qilishi mumkin.

Tabiatda rekreatsiya imkoniyatlaridan foydalanish bo'yicha xozirgacha ko'p sohalarda ekologik sig'im, o'lcham, miqdoriy ko'rsatkichlar, ruhsat etilgan me'yor (REM) andozalari ishlab chiqilgan va ular amalda tadbiiq etilgan. Ularga rioya qilish va bajarish albatta shart. Aksincha esa tabiatda turli noxush hodisalar tarkib topa boshlaydi.

Ugom-Chotqol milliy tabiat bog'i mamlakat rekreatsiya tizimida asosiy o'rinni egallaydi. U yerdagi o'ziga xos iqlim sharoiti, tog' lavosi, zilol suvli daryo va soylar, shifobaxsh yer osti suvlari, go'zal tog' manzaralari nafaqat bemorlarga, balki dam olishga muxtoj kishilar, ayniqsa bolalarga xush yoqadi. Shular asosida milliy tabiat bog'i hududida iqlim asosida davolovchi (iqlim terapiya), fizoterapiya, landshafterapiya va boshqa turdagi shifoxonalar, sanatoriya-kurortlar hamda boshqa sog'lomlashtirish muassasalari tashkil etilgan va tashkil etilishi lozim. Hozir bog' hududida ikkita rekreatsiya mintaqasi ajratiladi\*.

Pargos-Oqtosh tog'-rekreatsiya majmuasida "Oqtosh", "Tovoqsoy", "Xumson" sanatoriylari, ko'plab o'quvchilar oromgohlari, turli tashkilotlarning dam olish maskanlari joylashgan. Mintaqa

janubida Xo'jakent suv ombori joylashgan bo'lib, uning qirg'oqlarida dam olish mintaqalari, sport maskanlari va boshqa rekreatsiya hududlari mavjud.

Chorvoq-Chimyon tog'-rekreatsiya majmuasining rekreatsiya tizimida Chorvoq suv ombori va Chimyon tog' darasi muxim ahamiyatga ega. Suv ombor sohili bo'ylab 100 km masofada qator dam olish mintaqalari, o'quvchi va talabalar oromgohlari joylashgan. Yana ko'plab tog'-rekreatsiya maskanlari Sijjak, Jahonobod, Bog'iston, Burchmulla, Yangiqo'rg'on, Nanay, Yusufxona kabi qishloqlar yaqinidagi xushmanzara joylarda bunyod etilgan (3-jadval).

METHda, ayniqsa milliy tabiat bog'lari mintaqasida ekologik turizmni rivojlantirish imkoniyatlari katta.

**"Ekoturizm"** – bu tabiat turizmi hisoblanib, tabiat muhitini bilish va tushinishni o'z ichiga oladi. Menejment sifatida shakllanadi, qaysiki bu faoliyat ekologik, ijtimoiy (sotsial) va madaniy jihatdan barqaror bo'lsa, bunday aniqlanish "tabiiy muhit" madaniy komponentlarini ham o'z ichiga olishini ta'kidlaydi. **"Ekologik muhit"** esa mahalliy aholi uchun ma'lum daromad va foydalaniladigan tabiiy resurslarni uzoq muddat muhofazasini qamragan bo'ladi. Yanada ravshanroq bayon etilsa, ekoturizm ham, turizmning boshqa barcha turlariga o'xshab ekologik barqaror bo'lishi, sayyoh-turistlarga qulayliklar tug'dirishi va mahalliy aholiga daromad keltirishi, shuningdek tabiiy va madaniy muhitga "mos" kelishi lozim. "Mos" kelishlik, qaysiki inson faoliyati turlari, miqyosi va usullari landshaft (ekotizim)lar va mahalliy aholi kayfiyati, qiziqishlari, xarakteri hamda o'lchamlariga to'g'ri kelishligidir. Chunki, xar qanday sayyohlik yoki ekoturizm ma'lum hududda amalga oshiriladi.

Ekoturizm boshqa turizm turlaridan o'ziga xos xususiyatlari bilan farqlanadi.

1. Ekoturizm yaxshi saqlangan tabiiy hududlarga sayohat bo'lib, bular milliy va tabiat bog'lari, rezervatlar va muhofaza-etiladigan tabiiy hududlarning boshqa turlarini o'z ichiga oladi.

2. Ekoturizm nisbatan qonun-qoidalarga bo'ysunish va ularga keskin rioya qilish, saqlanishi lozimligi mavjud tushunalidigan tarmoq.

**Ugom – Chotqol milliy tabiat bog'i hududidagi rekreatsiya  
mintaqalari**

Mintaqalar	Asosiy landshaftlar	Relief, mutloq balandlik (m)	Havo harorati, °S					Rekreatsiya xususiyati
			Oylar					
			V	VI	VII	VIII	IX	
<b>Fargos – Oqtosh</b>	O'rtacha balandlikdagi tog'lar, yer yuzasining ayrim joylari kuchli o'yilgan, efemer o'simliklar va sun'iy daraxtzorlar mavjud	Past tog'lar, o'rtacha balandlikdagi tog'lar (1500-2000 m)	18,6	21,5	25,6	23,7	18,2	Umumsog'lo mlashtirish va nafas olish organlarini davolash, alpinizm, tog' turizmi
<b>Qorvoq-himyon</b>	O'rtacha balandlikdan to baland tog'largacha, joylarda yuza juda o'yilgan, balandlik mintaqalari yaqqol namoyon bo'ladi. Tog' oldi chalov – har xil o'tli dashti, butayong'oqzor, archa o'rmonlari va baland tog' mintaqasi	Past tog'lar, o'rtacha balandlikdagi tog'lar (1000-2300 m)	18,4	21,3	24,9	22,8	19,0	Umumsog'lo mlashtirish, cho'milish, suv sporti, qishki sport, baliq ovlash, tog' turizmi

3. Ekoturizm tabiiy muhitga salbiy ta'sirlari nisbatan kuchsizligi bilan farqlanuvchi bo'lganligidan, ba'zan uni **“yumshoq turizm”** ham

deb ataladi. Shu bois ham u muhofaza qilinadigan tabiiy hududlarda amalda tabiiy resurslardan foydalanishning yagona turidir.

4. Ekoturizmida mahalliy jamoa nafaqat xizmat ko'rsatuvchi sifatida faoliyat ko'rsatadi, balki muxofaza qilinadigan hududda yashashni davom ettiradi, tabiatdan foydalanishning o'ziga xos tarkibiga rioya qilgan holda xo'jalikning an'anaviy turlari bilan shug'ullanadi. Demak, ekoturizm – bu unda sayohatchilar uchun dam olish, xursandchilik va ekologik tarbiya mujassamlashgan. Shuning uchun turizmning ushbu turi alohida yondashuv va rejalashtirishni taqazo etadi.

Ekologik turizmning o'sishini shundan ham ko'rish mumkinki, asosiy xalqaro turistik yo'nalishlar jozibador ekzotik tabiati va takrorlanmas turistik resurslari mavjud bo'lgan Avstraliya, Yangi Zelandiya, Janubiy Amerika, Afrika davlatlariga to'g'ri kelmoqda. Ma'lumotlarga ko'ra, xalqaro turizm bozorida ekoturizmning hissi hozirda 20 % dan ortdi.

hamda modda va energiya almashinuvini amalga oshirishning asosiy shaklidir. Landshaftlardan, ularning tabiiy salohiyatidan foydalanishda, madaniy landshaftlarni loyihalashtirishda landshaftning yuqorida ko'rsatilgan belgilari albatta inobatga olinishi lozim. Tabiatdan foydalanish geografik jihatdan qaralganda landshaftlar – tabiat va jamiyat o'zaro ta'sirining ilgarigi sikllarning mahsuli (natijasi) va yangi sikllarni amalga oshishi imkoniyatlarining shart-sharoitlaridir. Insonning tabiiy muhit bilan ekologik aloqalari va munosabatlari bevosita landshaftlarda kechadi. Shu sababli tabiatdan foydalanish, uni muhofaza qilish va yaxshilashga doir ijtimoiy tadbirlarning barcha tizimi landshaftlar to'g'risidagi ta'limot asosida ishlab chiqilishi lozim. Insonning hayot faoliyati muhitini o'rganishda nafaqat ishlab chiqarish va sotsial – maishiy vaziyat, balki landshaftning tabiiy xossalari ham nazarda tutiladi.

Landshaft qobig'ini muhofazasi har-xil ko'rinishda amalga oshirilishi mumkin. Ularning eng muhimlari quyidagilar: tabiatning tipik joylarini o'z holicha saqlab qolish uchun qo'riqxonalar, rezervatlar tashkil etish, ba'zi tabiiy ob'ektlarni, xalq parklarini buyurtmaxona(zakaznik)larga aylantirish, ajoyib tabiiy ob'ektlar (sharshara, g'or, qoya, keksa daraxt, jilg'a, buloq va boshqalar)ni hisobga olish, antropogen landshaftni rekultivatsiya qilish va boshqalar.

Landshaft elementlari inson yashaydigan aniq muhit hisoblanib, uni har qanday ko'ngilsiz va nooqilona o'zgarishlar hamda ifloslanishlardan muhofaza qilish zarur. Landshaftlarni muhofaza qilish deganda biz uning unsurlarini iloji boricha toza saqlash, undagi muvozanatning buzilishiga yo'l qo'ymaslik, tabiatning tipik va ajoyib hududlarini tabiiy holicha saqlab kolish kabilarni tushunamiz.

Landshaft va uning unsurlarini turli shakllarda muhofaza qilish mumkin. Ularni umumlashtirib quyidagi uch guruhga ajratamiz:

- Landshaftning butun komponentlarini to'la-to'kis muhofaza qilish.
- Antropogen landshaftning vujudga kelishi va uni asl holatini saqlash.
- Landshaftning butun komponentlarini muhofaza qilishda

qo'riqxonalarining ahamiyati juda katta.

*Qo'riqxonalar* - bu tabiat etaloni bo'lib tabiatni muhofaza qilishda bir qancha vazifalarni amalga oshiradi.

Qo'riqxonalar tashkil etish orqali malum bir joy yoki geografik zona tabiatning (barcha majmualari bilan birga) namunasi tabiiy holicha kelajak avlod uchun saqlab kolinadi.

Qo'riqxonalar - bu tabiatning tarkibiy qismi sifatida tabiat majmualari yaxshi saqlangan maydonlar hisoblanib, unda tabiiy - hududiy majmualarning rivojlanish qonuniyatlari, o'zaro aloqasini, organizm bilan muhit o'rtasidagi munosabatlarni ilmiy jihatdan o'rganiladigan tabiiy laboratoriyadir. Bu tabiiy laboratoriyada olib borilgan ilmiy izlanishlar natijasi, insonning xo'jalik faoliyati tufayli o'zlashtirilgan qo'shni hududda sodir bo'lgan va ijobiy o'zgarishlarga taqqoslanib, ilmiy prognozlar beriladi.

Qo'riqxonalar soni va turi kamayib borayotgan o'simlik va hayvonlarni qo'riqlash va ko'paytirishda juda muhim rol o'ynaydi. Qo'riqxonalar tufayli noyob hayvon yoki o'simlik ko'paytirib, boshqa joylarga tarqatiladi. Bunga Badkiz qo'riqxonasida ko'paytirilgan quyonlarni Turkmaniston hududiga qo'yib yuborilishi yaqqol misoldir.

Qo'riqxonalar yovvoyi hayvonlarni saqlash ularni ko'paytirishda ham ahamiyatlidir. Qo'riqxonada turli hayvonlar muhofaza ostiga olingach bugungi kunga kelib, shunchalik ko'payar ediki, uni ov qilishga ham ruxsat etish mumkin bo'lardi.

Qo'riqxonalar tabiatning ajoyib, qiziqarli, noyob joylarini (g'or, qoya, jar, ochilib qolgan jins, shar-shara, geyzer, buloq, nurash tufayli vujudga kelgan rel'ef shakllari va boshqalar) tabiiy holicha saqlab qolishda juda muhim vazifani bajaradi.

Qo'riqxonalarining madaniy-oqartuv va estetik jihatdan ahamiyati katta. Qo'riqxonalar orqali tabiatning ajoyib joylari keng omma orasida namoyon etiladi va tabiatni muhofaza qilish zarurligi targ'ibot qilinadi. Qo'riqxonalar uchun ajratilgan joylar ajoyib tabiiy manzarasining ko'rkamligi bilan kishilarni hordiq chiqarib madaniy dam oladigan joy, ularga estetik zavq beradigan ob'ekti sifatida ham ahamiyatlidir.

Qo'riqxonalar muhofaza qilinadigan ob'ektning harakteriga ko'ra majmualari va maxsus qo'riqxonalariga ajratiladi.

Biror hududdagi tabiiy-hududiy majmualar to'liq butunlay muhofaza qilinsa, uni majmualar qo'riqxonasi deb aytiladi. O'zbekistondagi qo'riqxonalarining ko'pchiligi shunday qo'riqxonalaridir.

O'zbekiston hududida to'qay, cho'l, tog' landshaftini muhofaza qilish va u yerdagi tabiat komponentlarini, xususan o'simlik va hayvonlarning hayotini chuqur o'rganish hamda ko'paytirish maqsadida qo'riqxonalar tashkil etilgan.

Landshaftlarni muhofaza qilishda yana milliy (xalq) parklari, buyurtmaxona (zakaznik)lar va tabiat yodgorliklarining ham ahamiyati kattadir.

O'zbekistonda hozircha Turkiston tog' tizmasining shimoliy yon bag'rida joylashgan Zomin xalq parki (1977 yil) mavjud. Uning maydoni 47,7 ming ga bo'lib, dengiz sathidan 1000-4030 balandlikda joylashgan. Bu xalq parkida mehnatkashlarning dam olishi, sport mashg'ulotlari va turizm bilan shug'ullanishlari uchun qulay sharoitlar yaratilishidan tashqari, tog' landshafti va u yerdagi organizmlar, o'tloqlar, hayvonlar, tabiatning ajoyib ob'ektlari muhofazaga olingan.

Landshaftlarni muhofaza qilishda buyurtma (zakaznik)lar ham ishtirok etadi. Buyurtmalar hududida tabiat komponentlarining bir qismi (o'simlik, hayvon, parranda yoki tabiatning ajoyib qismi va boshqa) qo'riqlanadi. Buyurtmaxonalar doimiy va vaqtli bo'ladi. Buyurtmalarini asosiy vazifasi noyob hayvon, parranda yoki o'simlik turini yoki tabiatni ajoyib joylarni yo'q bo'lib ketishidan asraydi, hayvon va o'simliklarini ko'payishi uchun sharoit yaratadi.

Landshaftlarning ajoyib, diqqatga sazovor unsurlarini saqlab qolishda tabiat yodgorliklarining ahamiyati juda katta. Ilmiy, madaniy va tarixiy jihatidan qimmatli, ajoyib, noyob tabiat ob'ektlarini muhofaza qilib, saqlab kolish uchun ancha katta maydonni egallovchi qo'riqxonalar, zakazniklar barpo etish shart emas. Ularni maydoni juda kichik bo'lgan "tabiat yodgorliklari" sifatida saqlab qolib, muhofaza

qilish mumkin. Bu birinchidan tez amalga oshiriladi, ikkinchidan kichik joy bo'lganligidan katta mablag' sarflashni talab etmaydi.

Tabiat yodgorliklari deganda, biz g'orlarni, kanonlarni, sharsharalarni, ajoyib buloq va geyzerlarni, daralarni, jarlik joylarni, qoyali rel'ef shakllarini, ochilib qolgan yotqiziqnlarni, ayrim noyob va qimmatli daraxtlar-ni, toshqotgan hayvonlarni, tarixiy obidalarni va boshqa tabiatning ajoyib ob'ektlarini tushunamiz. Tabiat yodgorliklarini saqlash va muhofaza qilishning ilmiy, tarixiy, madaniy-estetik va vatanparvarlik ahamiyati katta.

O'zbekistonda mingga yaqin tabiat yodgorliklari mavjud. Lekin ularning ko'pchiligi hisobga olinmasligi oqibatida holati yomonlashib bormoqda. Shu sababli zudlik bilan har bir qishloq, rayon, viloyat hududida mavjud bo'lgan tabiiy yodgorliklarni nazorat ostiga olish zarurdir.

Tabiat yodgorliklari xususiyatlariga qarab geologiya, paleontologiya, landshaft, arxeologik va botanik yodgorliklarga bo'linishi mumkin.

Landshaft yodgorliklari juda ko'p bo'lib unga ajoyib qoyalar, sharsharalar, shovvalar, darralar, tanglar, qiziqarli jarlar va boshqalar kiradi. Landshaft yodgorliklariga Ilono'tti darasi, Arslonbobdagi katta sharshara, Surxondaryodagi Kalif -Sherobod marzasi, Katta va Kichik Chilan soyliqi, Oqtosh soyliqi, Sangzor darasi, Shovvachi va boshqalar kiradi.

### **6.3. Muhofaza etiladigan tabiiy hududlardan oqilona foydalanish bo'yicha xulosa va takliflar**

**Xulosa.** Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar qator toifalarga ajratiladi, bulardan joyga xos tabiiy ekotizimlarni majmuali saqlash va kelajak avlodlarga etkazishda Davlat qo'riqxonalari va milliy tabiat bog'lari muhim o'rin egallaydi;

- qo'riqxonalar va milliy tabiat bog'lari tekisliklarda zonallik qonuniyatlari, tog'larda esda azonallik tamoyillari (balandlik mintaqalari) asosida joylashadi;

- O'zbekistondagi qo'riqxonalar asosan tog' va tekislik-to'qay qo'riqxonalari hisoblanadi.

- muhofaza etiladigan tabiiy hududlar joylarga xos etalon ekotizimlarni saqlashdan tashqari: ekologik, ijtimoiy, iqtisodiy, ilmiy-ma'rifiy, tarbiyaviy vazifalarni ham bajaradi;

- muhofaza etiladigan tabiiy hududlar, xususan, qo'riqxonalar va milliy tabiat bog'larida o'ziga yarasha turli ob'ektiv hamda sub'ektiv muammolar mavjud;

- qo'riqxonalar va milliy tabiat bog'lari noyob, yo'qolib ketish arafasidagi fauna va flora vakillarini saqlash bilan birga mahalliy aholini ish bilan ta'minlash borasida ham muhim rol o'ynaydi;

- milliy tabiat bog'lari hududida rekreatsiya faoliyatini rivojlanishi rekreatsiya-qishloq xo'jaligi; rekreatsiya-sanoat; rekreatsiya-transport; rekreatsiya-xizmat ko'rsatish sohaslarini rivojlanishiga ham turtki bo'ladi;

- mintaqalarda rekreatsiya va ekoturizmni rivojlantirishda ekotizimlar sig'imini hisobga olish muhim masala ekanligini unutmaslik lozim;

- milliy tabiat bog'larining rekreatsiya va ekoturizm imkoniyatlari juda boy va xilma-xil;

- muhofaza etiladigan tabiiy hududlar tabiatning rivojlanish qonuniyatlari, inson ta'sirida bo'ladigan o'zgarishlar yo'nalishini aniqlash va bashoratlashda muhim ilmiy maskan-laboratoriya hisoblanadi;

- muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning saqlanishi boshqa ekotizimlarning barqarorligini ta'minlaydi.

**Takliflar.** "Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar tog'risida"gi qonunni (3.12.2004) amalda qo'llanilishini to'liq ta'minlashga erishmoq lozim;

- O'zbekiston hududida o'ziga xos ekotizimlar, tabiat majmualari turli-tumanki, hozirda bularning barchasi noyob hisoblanadi. Shu bois muhofaza etiladigan tabiiy hududlar maydonini kengaytirish lozim (2.2. bo'limda loyihasi ilova qilingan darajada bo'lsa ham);

- muhofaza etiladigan tabiiy hududlarga baribir inson ta'siri ortib bormoqda. Masalan, Surxon davlat qo'riqxonasi Tojikiston allyumin zavodi ta'sirida bo'lsa, Chotqol qo'riqxonasi yoki Ugom-Chotqol milliy tabiat bog'i Chirchiq sanoat shahri ta'sirida ("ishqorli" yomg'irlar va h.k) ancha aziyat chekmoqda. Bularga batamom barham berishga erishmoq lozim;

- muhofaza etiladigan tabiiy hududlar, ularni boshqarish va ularga javobgarlik turli tashkilotlar zimmasida (masalan, Ekologiya va tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi, mahalliy hokimiyatlar va boshq.) bu jarayonni yagona egalik qiluvchi davlat muassasasi boshqargani maqsadga muvofiq;

- muhofaza etiladigan tabiiy hududlarda turli tashkilotlar uchun dam olish mintaqalari, dala hovli va boshqa maqsadlar uchun joy ajratishni tartibga solish muhim masala;

- qo'riqxonalar, milliy tabiat bog'larining O'zbekiston Respublikasi FANing tarmoq institutlari, oliy o'quv yurtlari bilan ilmiy- tadqiqot borasidagi birgalikdagi izlanishlarini kuchaytirish lozim;

- qo'riqxonalar, milliy tabiat bog'lari hodimlari, xususan ilmiy mutaxassislari tarkibini, miqdorini ko'rib chiqish va boyitish lozim, aksariyat joylarda hodimlar soni, tarkibi, ilmiy salohiyat darajasi talabga javob bermaydi;

- milliy tabiat bog'lari hududidagi rekreatsiya inshootlari, dala hovli va boshqalarni qurishda mahalliy sharoitlar hisobga olinishi lozim. Ayniqsa, dala hovli degani atrof-tabiiy muhitga – manzaraga uyg'un bo'lsa maqsadga muvofiq bo'lar edi. Hozirda baland tog' yonbag'rida bunyod etilgan temir-beton, sement g'ishtli, oq yaltiroq alyumin tunikali, bir necha qavatli dala hovlilar bog' tabiatini "buzmoqda". Shahardan hordiq chiqarish maqsadida kelgan rekreatantlar yoki sayyohlar huddi yana "uzoqdagi shaharga" kelib qolgandek his etadilar o'zlarini;

- milliy tabiat bog'lari hududida "yovvoyi dam oluvchilar", dorivor o'simliklar "shinavandalari" kabilarni faoliyatiga butunlay chek qo'yish lozim;

- milliy tabiat bog'lari hududida transport harakatlari cheklanishi (ayniqsa) lozim. Buning uchun milliy tabiat bog'ining kirish yoki chegarasida maxsus avtoulovlar to'xtash joyi bo'lib, u yog'iga maxsus transportlar, osma dor yo'llar yoki ekologik sof ulovlar xizmat ko'rsatishi lozim;

- milliy tabiat bog'larining tabiati mukammal tibbiy-sog'lomlashtirish jihatidan baholanilishi va shunga ko'ra ko'plab rekreatsiya mintaqalari va maskanlari bunyod etilishi lozim;

- milliy tabiat bog'lari hududida inson dam olishi, davolanishi va boshqa, maqsadlari uchun zarur, qulay barcha infratuzilmalarni (yo'l, transport, aloqa, ovqatlanish va h.k) rivojlantirish lozim. Bu o'z o'rnida xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish va yangi ishchi o'rinlari yaratilishida imkon yaratadi.

- milliy tabiat bog'larining o'ziga xos tabiati, manzarasi, qulay tabiiy sharoiti, mavjud rekreatsiya va ekoturizm imkoniyatlari reklamasini kuchaytirish lozim;

- milliy tabiat bog'larini saqlash va ulardan foydalanishda xorij mamlakatlari tajribasidan keng foydalanishni yo'lga qo'yish ijobiy natijalar berishiga ishonch hosil qilib, tajriba almashishni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir;

- muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni saqlash, ayrim toifalari (milliy tabiat bog'lari)da rekreatsiya va ekoturizmni rivojlantirish borasidagi moliyaviy harajatlar va homiylik faoliyatlarini kuchaytirish va rivojlantirishga erishmoq lozim;

- METH da yong'inni oldini olish chora-tadbirlarini kuchaytirish lozim;

- qo'riqxonalar, milliy tabiat bog'larining moddiy-texnik bazasini kuchaytirish (tezkor aloqa vositalari, transport, dala-ilmiy tadqiqot anjomlari va h.k) darkor.

### **Tayanch iboralar:**

Litosfera, gidrosfera, atmosfera, geografik landshaft, umumiy, regional, tipologik, geotizim, geomajmua, tabiiy-hududiy majmua, barqarorlik, yondashuv, landshaft tuzilmasi, komponentlararo aloqa.

### Nazorat uchun savollar:

1. "Landshaft" tushunchasini ta'riflang.
2. "Landshaft qobig'i" qanday tuzilishga ega?
3. Mutaxassislar landshaftni qanday tushuncha deb biladilar?
4. Landshaftdan foydalanilganda uning qanday xususiyatlarga e'tibor berish lozim?
5. Landshaftlarning barqarorligini qanday tushunasiz?
6. Landshaft inson uchun nimalarning manbai hisoblanadi?
7. Landshaftning jamiyat oldida qanday burchlari mavjud?
8. Geoekologik muammolarning vujudga kelishi landshaftlarda kechadigan qanday jarayonlar bilan bog'liq?
9. Tabiiy muhitni optimallashtirish qanday mezonlarga asoslanadi?
10. Landshaftlarni qanday muhofaza qilinadi?

## IZOHLI LUG'AT

**Aeratsiya** – havoning biror muhitga (suv, tuproq va b.) tabiiy yoki an'iy yo'l bilan kirishi.

**Aerazol** – gazsimon muallaq holatda tarqalgan qattiq va suyuq arrachalardan iborat dispers tizim (tutun, tuman).

**Akkumulyatsiya** – cho'kindi to'planishi, oqar suv, muzlik, hamol va boshqa geologik kuchlar ta'sirida mineral va organik ho'kindilarning to'planish jarayoni.

**Akvatoriya** – suv yuzasi chegarasi.

**Albedo** – yuzaning quyosh nurini qaytaruvchanlik qobiliyatini tavsiflovchi ko'rsatkich.

**Allyuvial tekislik** – oqar suvlar oqiziqilarining chuqurroq joylarda ho'kib qolishidan vujudga kelgan tekislik.

**Almashtirib ekish** – tuproq unumdorligini oshirish uchun bir alaning o'zida ekinlarning muayyan tartib bilan almashtirib ekish.

**Alp va subalp o'tloqlari** – o'rmonlar mintaqasidan yuqorida, himiy qor va muzliklardan pastda bo'lgan baland tog' o'tloqlari.

**Antropogen omil** – Inson va uning faoliyati tomonidan tashkilotlarga, biogeotsenoz, landshaft, biosferaga ko'rsatiladigan ta'sir.

**Areal** – maydon (hudud): quruqlik va dengiz okeanlarning biror hududida va jarayonlar tarqalgan qismi.

**Atrof-muhit muhofazasini boshqarish** – atrof-muhitga antropogen faoliyat natijasida zararli ta'sirni chegaralaydigan hamda abiotik resurslardan oqilona foydalanib, ularni qayta tiklashni ta'minlaydigan me'yor va talablarning bajarilishini ta'minlash.

**Atrof(insonni qamragan)-muhit** – odamlarga va ularning ta'jaligiga birgalikda va bevosita ta'sir etuvchi abiotik, biotik va ijtimoiy muhitlar majmuasi.

**Atrof-muhitga ko'rsatiladigan ta'sirning tavsifi** – ta'sirning ta'lam turlari va omillari hamda ular uchun o'rnatilgan limit va me'yorlar qiymatlarini o'z ichiga olgan sifat va miqdor ko'rsatkichlari.

**Atrof-muhitni nazorat qilish** – inson va biota uchun eng muhim va asosiy bo'lgan atrof-muhit komponentlarining holati va ularning o'zgarishi ustidan nazorat qilish.

**Atrof-muhitni optimallashtirish** – atrof-muhitda xo'jalik ehtiyojlari uchun eng muqobil qulay tadbirlarni o'tkazish.

**Atrof-muhit sharoitini yaxshilash (tiklash)** – atrof-muhitning yuqoriroq energetik darajaga o'tishi, avtohton rivojlanish yoki inson faoliyati natijasida muhit sifatining yaxshilanishi.

**Atrof-muhitga keltirilgan iqtisodiy zarar (talofat)** – tabiatdan foydalanuvchining (*tabiiy manbalar* mulkdori, egasi, foydalanuvchisi, ijarachisi) moddiy boyliklari nobud bo'lishi, ko'zda tutilgan foydani qo'lga kiritma olmasligi, mulkiy talofatlarni qayta tiklash uchun majburiy chiqim qilishi tarzida shikast yetishiga olib keluvchi atrof-muhitga yetkazilgan zarar.

**Atrof-muhitga keltirilgan zarar yoki ekologik zarar** – atrof-muhitdagi antropogen faoliyat, atrof-muhitga ko'rsatilayotgan ta'sir, atrof-muhitning ifloslanishi, tabiiy resurslarning kamayib ketishi, ekotizimlarning buzilishi natijasida yuzaga kelgan va inson salomatligiga, moddiy boyliklarga aniq tahdid soluvchi salbiy o'zgarishlar.

**Atrof-muhitni muhofaza qilish** – tabiiy boyliklarni saqlash va ulardan unumli, oqilona foydalanishga asoslangan jamiyat va tabiat o'rtasidagi munosabatlarning uyg'unligini ta'minlashga qaratilgan davlat va jamiyat tomonidan olib boriladigan tadbirlar.

**Atrof-muhitni nazorat qilish** – inson va biota uchun eng muhim va asosiy bo'lgan atrof-muhit komponentlarining holati va ularning o'zgarishi ustidan nazorat qilish.

**Atrof-muhitning ifloslanishi** – tavsifi, joylashgan yeri yoki miqdoriga ko'ra atrof-muhit holatiga salbiy ta'sir qiladigan moddalarning atrof-muhitda mavjudligi.

**Avtotrof** – Quyosh energiyasi yoki amiak, vodorod sulfid va boshqa moddalarning oksidlanishi natijasida hosil bo'ladigan energiya hisobiga anorganik birikmalardan organik moddalar ishlab chiqaruvchi organizmlar.

**Amintaqallik** – mintaqalldan ko'ra mahalliy sharoit ta'siri kuchli bo'lgan landshaftlarning tarqalishi (masalan, qayir, qum landshaftlari – cho'llardan tashqaridagi va b.).

**Belgilangan tartibdagi qo'riqsona** – tabiiy majmua va biologik xilma-xillikni saqlab qolish uchun insonning maxsus aralashuvi zarur bo'lgan muhofaza qilinadigan hudud.

**Betartib ta'sir** – artof-muhitga bo'lgan umumiy ta'sirning bunga maxsus moslashtirilgan yo'llardan ("manbaning turg'un chiqish joyi") o'zgacha manbalar orqali sodir bo'ladigan qismi, masalan, ishlab chiqarish binolari yoki sanoat shahobchalari (umumlashgan holda) chiqindilarni tartiblanmagan joylashtirish va ko'mish joylari.

**Biogen jarayonlar** – tirik modda tomonidan vujudga keltirilib, u bilan bog'liq bo'lgan jarayonlar.

**Biogen jinslar** – asosan qirilib ketgan hayvonlar (zoogen), o'simliklar (fitogen) va ularning hayotiy faoliyati mahsulotlaridan tarkib topgan tog' jinslari.

**Bioindikatorlar** (yunoncha *bios* – hayot va lotincha *indico* – ko'rsataman, belgilayman) – ishtiroki, soni yoki rivojlanish xususiyatlari tabiiy jarayonlar, muhit sharoiti yoki antropogen o'zgarishlarning ko'rsatkichlari sifatida xizmat qila oladigan organizmlar.

**Bioindikatsiya** – yashash muhitining sifati yoki uning ayrim xususiyatlarini tabiiy sharoitda uning biotasi holati asosida baholash.

**Biogeotsenologiya** – biogeotsenozlarning tuzilishi va faoliyatini o'rganuvchi fan, biologiya (ekologiya) va geografiyaning tutashuvdagi ilmiy tarmoq.

**Biologik ifloslanish** – ekotizimga unga yot bo'lgan organism turlarining kiritilishi va ularning ko'payishi. Mikroorganizmlar bilan ifloslanishga bakteriologik yoki biologik ifloslanish ham deyiladi.

**Biologik monitoring** – ekologik monitoringning ifloslangan tabiiy muhitda tirik organizmlarning hayot kechirishini (reaksiyasini) kuzatadigan turi.

**Biologik tiklash choralari** – tuproq, suv va oqova suvlarga oqib ketgan neft mahsulotlari qoldiqlarini yo'qotish yoki ularni boshqa

ifloslantiruvchi moddalardan tozalash uchun tirik organizmlar, masalan, bakteriyalardan foydalanish.

**Biologik xilma-xillik** – umuman tirik moddalarning murakkabligi, o'z vazifalarini o'zi sozlash qobiliyati va ulardan har tomonlama foydalanish imkoniyatini aks ettiruvchi biologik obyektlarning farqlanadigan turlari yoki hodisalari soni. Genetik turlar, ekotizimlar xilma-xilligi mavjud.

**Biom** – Biosferaning o'simlikning asosiy turi yoki landshaftning biomi bir o'ziga xos xususiyati bilan tavsiflanadigan yirik mintaqaviy yoki subkontenental qismi.

**Biomassa** – faol tirik moddaning maydon yoki hajm birligiga nisbatan miqdori, massa birligida ifodalanadi.

**Biosentrizm** – tabiatni muhofaza qilishda jonli tabiatning manfaatlarini (inson tasavvuridagi) barcha narsadan ustun qo'yuvchi ilmiy yondashish.

**Biota** – organizmlarning tarqalish mintaqasi umumiyliги tufayli birlashib, tarixan shakllangan turkumi.

**Biotashhis** – muhit o'zgarishiga nisbatan o'ziga xos reaksiya munosabatlarga ega bo'lgan bioindikatorlar asosida muhit holati o'zgarishining sabab va omillarini aniqlash.

**Biotestlash** – tirik organizmlardan foydalanib atrof-muhit obyektlari sifatini baholash (asosan, laboratoriya sharoitida).

**Biotsidlar** – 1) tirik organizmlarni batamom yo'q qilish yoki ularga ziyon yetkazish xususiyatiga ega modda; 2) keng hududlarda barcha jonzodlarni ongli tarzda yo'q qilish.

**Biyoqilg'i** – yoqqanda energiya chiqaradigan (yog'och, torf, suv o'tlari...) yoki issiqlik bera oladigan organik chiqindilar (axlat, go'ng, qipiq).

**Bitum** – tarkiban xilma-xil bo'lgan uglevodorodli saqichsimon modda birikmalarining umumiy nomi.

**Bog'** – rekreatsiya maqsadida foydalaniladigan tabiiy yoki madaniylashtirilgan o'simlik turlari bilan qoplangan, maxsus yo'lkalari, tabiiy yoki sun'iy suv havzalari, maydonchalar bilan jihozlangan hudud.

**Brakonyer** – joriy qilingan ta'qiqlarni buzib hayvon, baliq ovi, o'rmon kesish bilan shug'ullanuvchi shaxs.

**Bug'li gaz** – yerdan chiqadigan infraqizil nurlanishni aks ettiradigan va shu tariqa atmosferada issiqlik to'planishiga yordam beradigan gaz ( $\text{SO}_2$ , metan).

**Cho'llashish** – ekotizimlarning mahsuldorligini yo'qotish oqibatida foydalanishdan chiqishi, cho'llarning maydonini kengayishi.

**Degazatsiya** (lotincha *de* – bekor qilish va gaz) – 1) ifloslangan joy, transport vositalari, oziq-ovqat mahsulotlaridan ifloslantiruvchi moddalarni olib tashlash, neytrallashtirish; 2) suvda eritilgan gazlarni yo'qotish uchun suvni tozalash.

**Degradatsiya** – pasayish, yomonlashuv, buzilish.

**Denudatsiya** – tog' jinslarining yemirilishi va yemirilgan jinslarning suv, shamol, muz yordamida pastqam joylarga olib borib yotqizilish jarayoni.

**Depopulyatsiya** – aholi yoki hayvonlar sonining kamayishi.

**Dezinfeksiya** (fransuzcha, *des* – ...dan va lotincha, *insektum* – hasharot) – insonga zarar keltiruvchi hasharotlarni maxsus vositalar bilan qirish, ular esa (vositalar) o'z navbatida, ifloslantiruvchi moddalar sifatida yuzaga chiqishi mumkin.

**Digressiya** (inglizcha, *degression* – kamayish) – ekotizim vaziyatining tashqi (ekzogen) yoki ichki (endogen) sabablarga ko'ra yomonlashishi.

**Distansion tadqiqot usuli** – landshaft va unga ta'sir etuvchi omillarni kuzatish obyektidan uzoqda joylashgan vositalar yordamida tadqiqot qilish.

**Drenaj** – ortiqcha namlangan yerlarni suvni maxsus zovur va yerosti quvurlari – drenajlar yordamida boshqa joyga oqizish yo'li bilan quritish usuli.

**Edafik** – lot *Edaphos* – tuproq.

**Ekobiznes** – o'z ichiga quyidagi guruhlarini qamrab olgan iqtisodiyot sohasi: 1) ifloslanishning oldini olishni ta'minlaydigan korxonalar (maxsus uskunalar, ekologik toza avtomobillar, monitoring uchun asboblarni ishlab chiqarish); 2) tabiiy resurslarni tejaydigan

texnologiyalar bilan ishlovchi korxonalar (muqobil energiya, „ekologik xavfsiz“ markali mahsulot ishlab chiqarish, chiqindilarni resikling qilish); 3) atrof-muhitni obodonlashtirish ishlarini olib boruvchi korxonalar; 4) axborot sohasidagi ekobiznes, shu jumladan, ekologik ta'lim va tarbiya muassasalari hamda moliyalashtirish tashkilotlari.

**Ekologik baho** – jamiyat bilan atrof-muhit o'rtasidagi o'zaro ekvivalent almashuv o'lchami.

**Ekologik boshqaruv** – jamiyat taraqqiyotida ekologik strategiyasini amalga tadbiiq qiluvchi faoliyat.

**Ekologik dastur** – tabiatdan foydalanishni boshqarish mexanizm va vositalarini taraqqiy ettirishga qaratilgan harakatlarni izchil ravishda olib borish; ekologik strategiya va siyosatni shakllantirish va asoslab berish har qanday ekologik dasturning tarkibiy qismidir.

**Ekologik falokat** – ishlab chiqarish va transportda amaldagi texnologik tartib va qoidalarda qayd etilmagan hamda atrof-muhitga ko'rsatilayotgan ta'sirning keskin oshib ketishiga sababchi bo'ladigan vaziyat.

**Ekologik halokat** – atrof-muhitda nomunosib holatning vujudga kelishi; xususiy parametrlarning yoki tashqi o'zgaruvchan ko'rsatkichlarning keskin nomuvozanatli va nostatsionar o'zgarishi natijasida tabiatdagi barqarorlikning yo'qotilishi, atrof-muhitda noturg'un holatning vujudga kelishi.

**Ekologik inqiroz** – inson faoliyati yoki tabiiy omillar ta'siri ostida atrof-muhit holatining turg'un, nisbatan asta-sekin, qaytarish mumkin bo'lgan yoki qaytarish mumkin bo'lmagan ravishda yomonlashuvi.

**Ekologik madaniyat** – atrof-muhitdan tabiatning rivojlanish qonuniyatlarini anglab yetgan hamda inson faoliyati yaqin va uzoq kelajakdagi oqibatlarini inobatga olgan holda foydalanish.

**Ekologik me'yorlash** – insoning tabiatni muhofaza qilish va undan oqilona foydalanishga yo'naltirilgan ilmiy va huquqiy faoliyati. Ekologik me'yorlashning maqsadi – ekotizimga bo'lgan antropogen ta'sirning ekotizimning normal faoliyatini ta'minlovchi ekologik reglament va me'yorlarini ishlab chiqishdir.

**Ekologik nizo** – ma'lum hududda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish maqsad va vositalarining tabiatning o'zini-o'zi tiklash qobiliyatlari bilan o'zaro nomutansibliigi.

**Ekologik sertifikatlashtirish** – ishlab chiqarilgan mahsulot tavsiflari atrof-muhit muhofazasi sohasidagi standartlarga mosligini tasdiqlash jarayoni.

**Ekologik siyosat** – atrof-muhitni muhofaza qilish faoliyatining tamoyillari va maqsadlari, shuningdek, bunday maqsadlarga erishishning umumiy usullari va mexanizmlari tizimi yoki tabiat muhofazasi va ekologik muammolarni davlat tomonidan amaliy yechish tadbirlarni majmuasi.

**Ekologik talablar** – ekologik toza ishlab chiqarishni yaratish va rivojlantirish maqsadlarida ishlab chiqariladigan mahsulot, uni ishlab chiqaradigan texnologiyalar, umuman, hayot tarziga qo'yiladigan ma'lum shart va chegaralar yig'indisi.

**Ekologik toza mahsulot** – tegishli ekologik sertifikat talablariga to'liq javob beradigan mahsulot.

**Ekologiya** (yunoncha, *oikos* – uy, joy va *logos* – ta'limot, so'z) – E.Gekkelning ta'riflashicha, biologiyaning organizmlar bilan muhitning o'zaro munosabatlarini o'rganuvchi bir bo'limi. Ekologiya barcha tirik organizmlar va muhitni hayot uchun qulay qiladigan barcha jarayonlarni o'rganadi.

**Emissiya** – atrof-muhitga gazsimon chiqindilar va issiqlikning chiqarilishi.

**Endemik** – faqat aynan shu mintaqada yashovchi biologik tur.

**Epifitlar** – o'zga o'simliklarda joylashadigan, lekin tekinxo'r bo'lmagan o'simliklar.

**Eroziya** – tog' jinslari va tuproqlarning oqar suvlar yuvib, oqizib yoki shamol uchirib ketishi.

**Etologik belgilar** – hayvonlarning xulqiga oid belgilar.

**Evolyutsiya** – mavjudotlardagi takrorlanmas o'zgarish jarayoni.

**Falokatli ta'sir** – atrof-muhitga bo'lgan ta'sirning tasodifan vujudga keladigan kismi.

**Fauna** – muayyan hududda yashayotgan barcha hayvon turlarning evolyusiyasi jarayonida tarixan shakllangan majmuasi – hayvonot olami.

**Favqulotda ekologik vaziyat** – odamlar qurbon bo'lishi ular salomatligi yoki atrof-muhit holatiga sezilarli zarar yetishiga sabab bo'ladigan muayyan hududda vujudga kelgan vaziyat.

**Firn** – muz donachalaridan iborat zichlashgan havorang qor, u qor bilan muz oralig' idagi bosqich.

**Flora** – muayyan hududni egallagan o'simlik turlarining tarixan tarkib topgan va rivojlanib kelayotgan guruhi – o'simlik dunyosi yoki o'simliklar qoplami

**Galofidlar** – sho'r tuproqlarda yashashga moslashgan o'simliklar.

**Gemerofob** – insonning atrof-muhitga o'tkazayotgan ta'siri tufayli yo'q bo'lib ketayotgan (yo'q bo'lib ketgan), madaniy o'simliklardan chetlanuvchi tirik organizmlar.

**Genezis** – rivojlanishga tegishli jarayon; paydo bo'lish.

**Genofond** – makon va zamonda turli biologik obyekt va hodisalarning xilma-xilligi.

**Geoekologiya** – ekologiyaning yuqori bosqichidagi ekotizimlarni, xususan biosferani ham tadqiq etuvchi bo'limi (landshaftlar ekologiyasi).

**Geojftlik (geopara)** – o'zaro ta'sirdagi qo'shni tabiiy majmualar.

**Geotizm** – o'zaro munosabat va aloqada bo'lgan hamda muayyan mushtaraklik va birlikni tashkil qiluvchi geografik qobiqning elementlar to'plami.

**Geteratroflar** – tayyor organik moddalar bilan oziqlanuvchi, murakkab birikmalardan foydalanib, ularni bir shakldan ikkinchi shaklga aylantiruvchi va parchalovchi mikroorganizmlar, hayvonlar, ba'zi o'simlik va zamburug'lar.

**Glyatsial** – nival mintaqqa tog'lardagi doimiy sovuq qor va muz bilan qoplangan yuqori mintaqqa.

**Gidrogalamorf** – nam va sho'rxok sharoitga moslashish.

**Globalashuv** – sayyora miqyosida geografik jarayonlar va ularning oqibatlarini tahlili.

**Gomeostaz** – tabiiy tizim (organizm)ning uning asosiy tuzilmalarining, modda – energetik tarkibining muttasil tiklanib turishi va komponentlarning doimiy vazifaviy o‘z-o‘zini tartiblash bilan bir me‘yorni tutib turuvchi ichki tadrijiy muvozanat holati

**Gumid iqlim** – parlanishga nisbatan atmosferadan ko‘p yog‘in tushuvchi nam iqlimli hududlar.

**Gumus** – tuproqdagi to‘qimali tuzilishini yo‘qotmagan, lekin tirik organizmlar va ularning qoldiqlari tarkibiga kirmaydigan barcha organik birikmalar yig‘indisi.

**Hududiy ekologik infratuzilma** (lotincha, *infra* – tagida va *struktura* – tuzilish) – davlat organlari, muassasalar, korxonalar, inshootlar, texnologik tizim, texnik vositalar majmuasi hamda atrof-muhit sifati saqlanishi va yaxshilanishini ta‘minlovchi alohida muhofaza qilinadigan va reaksiyaviy hududlar majmuasi.

**Ierarxiya** – hodisalarning ahamiyatiga ko‘ra yuqoridan quyisi tomon tartib bilan tashkil topgan tizimi.

**Ifloslanish** – suv, havo va tuproqqa keyinchalik foydalanish uchun yaroqsiz holga keltiradigan konsentratsiyada mikroorganizmlar, kimyo moddalari, zaharlovchi moddalar, chiqindilar yoki oqova suvlarni qo‘shish.

**Ifloslanish darajasi** – muhitdagi ifloslantiruvchi moddalar miqdorining mutlaq yoki nisbiy qiymati.

**Ifloslanishning ko‘chma manbai** – turg‘un bo‘lmagan har qanday ifloslanish manbai (avtomobil, mototsikl, samalyot va h.k.).

**Immigratsiya** (lotincha, *immigrate* – ko‘chib kirmoq) – ekologiyada tirik organizmlarning ilgari ular yashamagan joylarga tabiiy ravishda kirib kelishi va joylashishi. Xo‘jalik yoki ekologiya nuqtai nazaridan ziyon keltiruvchi turlar immigratsiyasi nojoiz bo‘lib, ayrim hollarda unga qarshi maxsus choralar ko‘rish zarur bo‘ladi.

**Impakt monitoring** (inglizcha, *impact* – zarba beruvchi) – tabiiy muhit holati uchun ayniqsa, xavfli mintaqa va nuqtalardagi monitoring. Impakt monitoring, odatda, serqamrovligi bilan ajralib turadi.

**Irrigatsiya-sug‘orish** – qishloq xo‘jalik yerlarini sun‘iy sug‘orish, u tuproq melioratsiyasi turlaridan biri.

**Ixotazorlar** – dalalarni garmseldan, shamol eroziyasidan, cho'llarni qor va qum boshidan saqlash va boshqa maqsadlarda bunyod etilgan daraxtzorlar.

**Kalsefidlar** – ohakka boy, karbonatli tuproqlarni afzal ko'radigan o'simliklar.

**Karyer** – ochiq usulda ma'danlar qazib olinadigan konlar.

**Keskin holat** – ekologik tizimning barqarorlik chegarasidagi holati.

**Landshaft** – o'zaro ta'sir etuvchi tabiat yoki tabiiy va antropogen komponentlardan hamda pastroq taksonomik tabaqali majmualardan tashkil topgan tabiiy hududiy majmua.

**Landshaft invarianti** – landshaft har qanday ta'sirlar oqibatida ham mazkur landshaft turiga xos va o'zgarmas xususiyatlarining jami.

**Landshaftning ifloslanishi** – u yoki bu moddalar yoki energiya konsentratsiyasining tabiiy darajasidan oshishi, shuningdek, landshaftga unga yot bo'lgan moddalar, organizmlar va energiya manbalarining antropogen yoki tabiiy (vulqonlar, moddalarning tabiiy migratsiyasi) omillar ta'sirida olib kiritilishi.

**Lokal (mahalliy) ifloslanish** – atrof-muhitning uzoq masofalarga tarqalmagan, ifloslantirish manbalari yaqinidagi ifloslanishi. Lokal ifloslanish yig'indisi mintaqaviy ifloslanishni shakllantirishi mumkin.

**Melioratsiya** – qishloq xo'jalikda foydalaniladigan yerlarning holatini yaxshilash uchun amalga oshiriladigan agrotexnik va gidrotexnik tadbirlar.

**Modernizatsiya** – ma'lum, nisbatan uzoqroq vaqt mobaynida sanoatlashgan jamiyatga vaqt mobaynida sanoatlashgan jamiyatga majmuali islohotlar yo'li bilan o'tishning tub o'zgarishlar konsepsiyasi.

**Muhandislik ekologiyasi** – sanoat ekologiyasining atrof-muhitga ko'rsatilayotgan ta'sirini muvofiqlashtirish, shu jumladan, oqova suvlarni va chiqib ketayotgan gazlarni tozalash, chiqindilarni resikllashtirish, rekuperatsiyalash, tartibli joylashtirish va chiqarib tashlashning texnik va texnologik usularini ishlab chiqish va amalda qo'llash bilan bog'liq qismi.

**Muhit deterioratsiyasi** (lotincha. *deterior* – eng yomon) – atrof-muhitning antropogen omillar taʼsirida yomonlashishi.

**Qatʼiy barqarorlik** – ekotizimning qisqa muddat ichida oʻzini tiklab olish qobiliyati.

**Qoʻriq (boʻz) yer** – ekin ekishga yaroqli, ammo turli sabablarga koʻra oʻzlashtirilmagan yer.

**Region** – (nemischa – die Region); rayon (frans – rayon) – sinonimlar; yoki region (lotincha oʻlka) – yirik hududiy birlik, odatda rayonga nisbatan kattaroq.

**Rekreatsiya** – dam olish, boʻsh vaqtdan foydalanishning barcha shakllari.

**Rekultivatsiya** – xoʻjalik faoliyatida yaroqsiz holga kelgan yerlarni tuzatib, obod etib, turli maqsadlarda foydalanish.

**Relikt** – ilgari keng hududlarda tarqalib, hozir kichik maydonda qolgan yoki asosiy arealidan ajralgan oʻsimlik va hayvonlar turi.

**Reptiliya** – suvda va quruqlikda yashovchi hayvonlar.

**Sertifikatlashtirish** – monitoring oʻtkazilganda korxonalar tomonidan qoʻllaniladigan uskunalar va choralar muayyan standartga muvofiqligini baholash jarayoni va tadbirlari.

**Standart** – meʼyoriy-texnik hujjat. Keng maʼnoda oʻxshash obyektlarni ular bilan solishtirish uchun qabul qilingan andozalar, etalonlar, modellar.

**Strategiya** – muayyan maqsadlarga erishish yoʻllarini belgilaydigan aql faoliyati va rejalashtirish jarayoni natijasi.

**Tabiatni muhofaza qilish Jahon strategiyasi** – YuNEP koʻmagida Tabiat va tabiiy resurslarni muhofaza qilish xalqaro ittifoqi (TMXI) tomonidan 1980- yilda ishlab chiqilgan xalqaro hujjat boʻlib, u insoniyatning biosfera, ekotizimlar va turlardan hozirgi avlodga barqaror foyda keltirishi bilan birga, oʻz salohiyatini asrab qolish, kelasi avlodlarning ehtiyoj va intilishlariga muvofiq ravishda foydalanishni boshqarishga yoʻnaltirilgan.

**Terrikon** – konlardan chiqarib tashlangan keraksiz (boʻsh) jinslardan hosil boʻlgan konussimon tepa – uyumlar.

**Trafik (ozuqa) zanjir** – ozuqa-iste'molchi munosabatlari orqali bir-biri bilan bog'liq bo'lgan turlar guruhlar.

**Transpiratsiya** – o'simliklarning yerusti organlari orqali suvni bug'latishi.

**Tuproqning ikkilamchi sho'rlanishi** – tuzlarning minerallashgan sug'orish suvlari yoki yerosti suvlari bilan olib kiritilib tuproqda yig'ilishi.

**Umumjaxon tabiat xaritasi** – BMT Bosh Assabliyasi tomonidan 1982 yilda qabul qilingan xujjat bo'lib, unda asosiy tabiiy jarayonlar nisbatan o'zgarmas holda qolishi, hayotning barcha shakllariga esa yashash imkoniyati ta'minlanishi kerakligi qayd etilgan.

**Voha** – chala cho'l va cho'llarda inson tomonidan suv keltirilib (chiqarilib) obod qilingan va aholi yashaydigan joy (hudud).

**Yer tuzish ishlari** – yerdan foydalanish munosabatlarini tartibga solish hamda yerdan ishlab chiqarish vositasi sifatida oqilona foydalanishga qaratilgan davlat tadbirlari tizimi.

**Yerning buzilishi** – foydali qazilmalarni qazib olish, geologiya-qidiruv ishlarini olib borish, qurilish va boshqa shunga o'xshash ishlarni amalga oshirish natijasida tuproq qatlaminig, uning suv va gidrogeologik rejimlarining buzilishi, texnogen relyefning paydo bo'lishi va boshqa salbiy oqibatlariga olib keladigan jarayonlar.

**Zararli modda** – inson salomatligiga va yashaydigan muhitga xavf tug'diradigan har qanday modda.

**„Zohiriy“ ifloslanish mintaqasi** – atrof-muhitga ta'sir qiluvchi manbalar, chiqindilar joylashtirilgan, ko'milgan yoki tabiiy resurslar nooqilona foydalanilgan joylarga tutashgan, atrof-muhiti sabiy tomonga o'zgarganligini kuzatish va baholash uchun qimmatga tushadigan monitoring vositalarini talab qilmaydigan hududlar.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

### **I. O'zbekiston Respublikasi qonunlari**

1. Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida. 9.12.1992.
2. O'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida. 26.12.1997.
3. Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida. 26.12.1997.
4. O'rmon to'g'risida. 14.04.1999.
5. Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to'g'risida. 3.12.2004.
6. Me'yoriy-huquqiy aktlar to'g'risida. 14.12.2000.

### **II. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorlari**

7. O'zbekiston Respublikasi "Qizil kitob"i to'g'risida. 9.03.1992.
8. Biologik xilma-xillikni saqlab qolish bo'yicha O'zR milliy harakatlar rejasi va strategiyasi to'g'risida. 1.04.1998.
9. Respublika o'rmonlarini himoya qilish bo'yicha ba'zi me'yoriy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida. 21.11.199.
10. Chimyon-Chorvoq mintaqasi tabiiy boyliklarini saqlash va o'zlashtirishda majmual va tizimli yondoshuvni ta'minlash tadbirlari to'g'risida. 10.03.2000.
11. Ugom-Chotqol Davlat milliy tabiat bog'i to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash to'g'risida. 22.06.2001.

### **III. Monografiyalar**

12. Джумаев Т. Горы Узбекистана. –Т.: Мехнат, 1989.
13. Реймерс Н.Ф., Штильмарк Ф.Р. Особо охраняемые природные территории. М.: Мысль, 1978.

### **IV. Darsliklar va o'quv qo'llanmalar**

14. Baratov P. O'zbekiston tabiiy geografiyasi. T.: O'qituvchi 1996.
15. Жохов П.И. и др. Зеленные зоны и лесопарки. М., 1992.
16. Zokirov Sh.S., Boymitzayev K.M. Landshaftshunoslik asoslari. Namangan, NamDU, 2009, 96-b.

17. Коробкин В.И. Передельский Л.В. Экология. Р-н/ Д: Феникс, 2007.
18. Маринченко А.В. Экология М.: Дашков и К<sup>0</sup>, 2006.
19. Rafiqov A.A., Abirqulov Q.N., Xojimatov A.N. Ekologiya. –T.: Yozuvchilar uyushmasi, 2004.
20. Тухлиев Н. Экологический туризм: сущность, тенденции и стратегия развития. –Т.: УзМЕ, 2006.
21. Соф В.А., Аширов С.А. Западный Тянь-Шан: путешествие к истокам. –Т.: ПАТЕНТ-ПРЕСС, 2004.
22. Xodjimatov A.N., Alimqulov N.R., Xolmurodov Sh.A., Djuraev M.E. Ekologiya va tabiatni muhofaza qilish. T. "Innovatsion rivojlanish nashriyoti-matbaa uyi", 2020. 228 b.

#### **V. Ilmiy maqolalar**

23. Abdug'aniev I., Abdug'aniev O. Landshaftlarni optimallashtirish va ularni muhim xususiyatlarini saqlab qolishda alohida muhofaza qilinadigan tabiiy hududlar tizimining ahamiyati // O'zGJ Axboroti, 2003, 23-jild, 57-58- b.
24. Зокиров Ш.С. и др. Об основах ландшафтов Угам – Чаткальского государственного природного национального парка // Изв. Го Уз, т. 16, 1990, с. 8-10.
25. Лим В., Ан Э. Сурханский Государственный заповедник // Экологический вестник, №4, 2005, с.38-45.

#### **VI. Ilmiy-amaliy anjumanlar to'plamlari materiallari**

26. Abdug'aniev O.I. va boshq. Farg'ona viloyatida alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar: hozirgi ahvoli va kelajagi // Geografiya va tabiiy resurslardan foydalanish. –T.: Universitet, 2001, 31-33-b.
27. Boltaev M. va boshq. Toshkent viloyati tog'li hududlarida rekreatsiya resurslarining joylashishi // Tog' va tog'oldi hududlaridan foydalanishining geografik asoslari. –T.: Universitet, 2002, 114-115-b.
28. Usmonov M.R. Turizmning ekologik jihatlari // Geografiya va tabiiy resurslardan foydalanish. –T.: 2001, 106-108-b.

29. Usmonov M.R. O'zbekistonda turistik resurslardan foydalanish muammolari. // Geografiyaning dolzarb muammolari. Samarqand, 2006, 61-62-b.
30. Xayrullaev S. Parkent tumani yer osti suvlarining rekreasion imkoniyatlari. // Geografiya fanining dolzarb nazariy va amaliy masalalari. –T.: 2006, 98-99-b.
31. Xayrullaev S. Parkent tumani iqlimining rekreasion xossalari. // Geografiya fanining dolzarb nazariy va amaliy masalalari. –T.: 2006, 164-165-b.
32. Xodjimatov A.N. va b. Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar: qonun va amaliyot // O'zbekistonda geografiyaning dolzarb muammolari. Samarqand, 2009, 25-27 b.
33. O'zbekiston Respublikasida atrof tabiiy muhit va tabiiy resurslardan foydalanishning holati to'g'risida milliy ma'ruza. T.: Chinor ENK, 2002, 2006, 2008.

XODJIMATOV A.N., KARSHIBAEVA L.Q.,  
MADRAXIMOVA Z.N., SATTAROV S.M., ZIKIROV I.Ya.

# MUHOFAZA ETILADIGAN TABIY HUDUDLAR

(darslik)

Bosishga ruxsat etildi. 21.12.2021 y.

Qog'oz bichimi 60x84 1/16. Times New Roman  
garniturasida terildi.

Ofset uslubida oq qog'ozda chop etildi.

Nashriyot hisob tabog'i 8.5. Adadi 100. Buyurtma № 125

Bahosi kelishuv asosida

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika  
universitetining bosmaxonasida chop etildi.

Manzil: Toshkent shahar Chilonzor tumani,

Bunyodkor ko'chasi 27 uy.

